motivlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- *Isro hodisasi yuz berguniga qadar bo'lgan motivlar.*
- *Tungi sayr (Isro) davomidagi motivlar.*
- *Me'roj hodisasi davomidagi kechinmalarga oid motivlar.*
- *Isro va me'rojdin qaytgandan keyingi voqealarga doir motivlar.*

Me'roj voqeasining sababi

Barcha me'rojnimalarda me'roj hodisasiga doir ishlangan motivlar boshida me'rojning sababi keladi. Eng ishonchli rivoyatga ko'ra Muhammad sallallohu alayhi vasallam boshchiliklaridagi oz sonli musulmonlarga nisbatan mushriklarning ozorlari, qiynoqlari kuchaygan qiyin bir holat paydo bo'lgan edi. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamni mushriklarning hujumlaridan himoya qiladigan shaxslar Abu Tolib va Xadicha onamiz ham vafot etgan va qiyinchilik haddan oshgan davrda Isro va Me'roj voqeasi sodir bo'ldi. Bu esa, ana shunday og'ir bir paytda u zot sallallohu alayhi vasallam va musulmonlar uchun katta tasalli edi. Noumidlik kayfiyatini so'ndirib, umid uchqunlarini alanga oldirish edi. Ayni chog'da, bu hodisa kishilar iymonini sinash omili ham edi.

Shuningdek, mufasssirlar "Isro" va "Najm" suralarining ba'zi oyatlarini o'rganib, Alloh taolo ulkan oyat-mo'jizalaridan bir qismini Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamga ko'rsatish uchun me'roj voqeasi bo'lib o'tganligini ta'kidlashgan.

Me'rojning sanasi

Bu motiv me'roj voqeasining qaysi sanada bo'lib o'tganligi haqidadir. Isro va Me'roj hodisasi yuz bergani haqida Islom ummatida mutlaqo ixtilof yo'q. Ammo qachon sodir bo'lgani haqida turlicha qarashlar bor. Bu borada tadqiqot olib borgan Siyrat fani mutaxassisi Abdul Azim Ziyovuddin ma'lumotlarni tahqiq etib Me'roj voqeasi sanasi haqida quyidagi xulosani keltiradi:

"Isro va Me'roj voqeasi hijratdan bir yil oldin, payg'ambarlikning 13-yili robi ul-avval oyida, dushanba kuni bo'lgani "rojih"-haqiqatga yaqindir. Bu vaqt milodiy 621-yilning sentyabr yoki oktyabr oyiga to'g'ri keladi. O'shanda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam qamariy 52 yoshga to'lgan edilar. Alloh taolo o'zining buyuk hikmati ila bu hodisaning aniq vaqtini Qadr kechasi kabi unuttirdi!".

Me'roj da'vatining xabari

Mazkur motiv Me'roj da'vatining xabari haqidagi rivoyatlar-

ga ko'ra Muhammad sallallohu alayhi vasallam Hatimda, Hijrda yoki Ummu Honiyning uyida ekanliklarida Jabroil alayhissalom u kishini da'vat qilish uchun kelganliklari to'g'risidadir. Hadislarga tayana-digan bo'lsak, voqea Ummu Honiyning uylarida ekanliklarida da'vat boshlangan. Ummu Honiy roziyallohu anhoning nasabi Rasululloh-nikiga borib taqaladi, bu sahobiya u zotning amakilari Abu Tolibning Fahita ismli qizi bo'lib, hazrati Aliyning opalaridir.

Ko'krak yorilishi motivi

Bu motivda me'roj voqeasidan avval Muhammad sallallohu alayhi vasallamning ko'ksilarini yorilib, bashariy ayb va nuqsonlar-dan poklanganligi, qalblarining imon va hikmat bilan to'ldirilgan-ligi haqida so'z boradi. Ayrim mufasssirlarga "Sharh" surasining ilk oyati bu voqeaga aloqador bo'lib, oyatning ma'no tarjimasida quyidagi-cha: *Sening ko'ksingni keng qilib qo'ymadikmi?* (Sharh surasi, 1-oyat ma'no tarjimasida).

Ya'ni, Alloh taolo O'zining inoyati bilan Muhammad sallallo-hu alayhi vasallamning ko'ksilarini keng qildiki, u zot ko'ksilariga payg'ambarlik, hidoyat, imon, hikmatlar mas'uliyatini sig'dira oldi-lar [Shayx Muhammad Sodik 2012, 498–499].

Payg'ambar alayhissalomning ko'ksilari yorilishi necha bor sodir bo'lgani haqida ulamolar turlicha fikr bildirishgan. Ba'zi ula-molar to'rt marta sodir bo'lgan desa, boshqa ulamolar ushbu hodi-saning uch marta sodir bo'lganini ta'kidlaydilar. Bu borada yanada chuqurroq izlangan ulamolarimiz "Payg'ambar alayhissalomning ko'kraklari ikki marta yorilgan", degan fikrni ilgari suriadilar. Biz-ningcha ham keyingi fikr to'g'riroqdir.

U zot sallallohu alayhi vasallam tavalludlarining to'rtinchi yoki beshinchi yilida "Shaqqus sodr" (ko'ksining yorilishi va undan shayton ulushining chiqarib tashlanishi) voqeasi bo'lib o'tdi. Imom Muslim Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bolalar bilan o'ynab yurganlarida, Jabroil alayhissalom kelib, u kishini yerga yotqizdi va ko'kraklarini yorib, yuragini chiqarib oldi. Yurakdan bir quyuq qonni olib tashlab: "Bu shaytonning sizdagi ulushi edi", – dedi. So'ng oltin tog'oradagi Zam-zam suvi bilan yurakni yuvib, o'nglab-yaxshilab, keyin joyiga solib qo'ydi. Bolalar onaning, ya'ni Halimaning oldiga yugurib kelib: "Mu-hammadni o'ldirishdi", – deyishdi. Ular nabiyy sallallohu alayhi vasal-lamni qarshilaganlarida, u zotning ranglari o'zgarib ketgan edi. Anas raziyallohu anhu aytadi: "Men u zotning ko'ksilaridagi o'sha tikilgan ip izlarini payqagan edim" [Muborakfuriy 2019, 52].

Ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi Isro kechasida sodir bo’lgan. Bu haqda ikki “Sahih”da ham aytib o’tilgan. Sahihul Buxoriyda keltirilishicha, Molik ibn Sa’sa’ raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Allohning Nabiyasi sallallohu alayhi vasallam o’zlari sayr qildirilgan kechalari haqida so’zlab berdilar: “Men Hatimda yonboshlab yotgan edim, birov kelib mana bu yerdan manavi yergacha kesdi. So’ng qalbimni chiqardi. Keyin menga iymon to’la tilla jom keltirildi. So’ng esa qalbim yuvilib, joyiga solib qo’yildi. So’ngra menga xachirdan kichikroq, eshakdan kattaroq bir oq ulov keltirildi. Men unga mindirildim. Keyin Jabroil meni olib yo’lga tushdi...” [Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 2014, 158].

Mo’tabar olimlarning ta’kidlashlaricha, muborak ko’kslari-ning bu safargi yorilishining sababi ul zotni yuksak darajada hurmat qilish, e’zozlash, qo’llab-quvvatlash va eng muhimi, Alloh taoloning huzurida turishga, U Zot bilan suhbatlashishga tayyorlashdir [Sayyid Muhammad 2019, 42]. Me’rojnomalarda ikkinchi “Shaqqus sodr” voqeasi motiv o’laroq tasvirlaganligi ma’lum bo’ladi.

Me’roj voqeasi boshlangan joy motivi

Ushbu motiv barcha me’rojnomalarda uchraydi. Sanab o’tilayotgan boshqa barcha motivlar ushbu motiv asosiga qurilgan. Imom Jaloliddin Suyutiy “Isro va Me’roj” haqida quyidagilarni yozgan: “Mufasssirlar, muhaddislar, fuqaholar va mutakallimlar barchalari “Isro va Me’roj”ning uyg’oqlikda bir kechada bo’lganiga ittifoq qilganlar. Bu haqida ochiq-oydin sahih xabarlar kelgan. Alloh taolo xabar berganki:

سُبْحَانَ الَّذِي أَسْرَى بِعَبْدِهِ لَيْلًا مِّنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ إِلَى الْمَسْجِدِ الْأَقْصَى الَّذِي بَارَكْنَا
حَوْلَهُ لِنُرِيَهُ مِنْ آيَاتِنَا إِنَّهُ هُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ

(O’z) bandasi (Muhammad)ni, unga mo’jizalarimizdan ko’rsatish uchun (Makkadagi) Masjidi Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakatli qilgan Masjidi Aqsoga tunda sayr qildirgan Zot barcha nuqsonlardan pokdir. Darhaqiqat, U Same’ (eshituvchi) va Basir (ko’ruvchi)dir (Isro surasi, 1-oyat ma’no tarjimasini) [Shayx Abdulaziz Mansur 2019, 282].

Tasbeh ulug’ ishlar qarshisida aytiladi (oyatda “Subhana” deya tasbeh aytilmoqda). Agar mazkur voqea Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning uxlayotgan paytlarida sodir bo’lganida, bu ishda alohida bir ulug’lik bo’lmasdi. Quraysh ham buni birdan inkor qilishga oshiqmas, islomga endi kirgan ba’zi kimsalar ham murtad

bo'lib ketmas edi. Zero, banda ruh va jasaddan iborat. Agar mazkur voqea u zotning uxlagan paytlarida faqat ruhlariga bog'liq holda so-dir bo'lganida edi, oyatda "Bandasini" deb emas, balki "Bandasining ruhini" deb aytilgan bo'lardi. Qolaversa, bu aqlan ham to'g'ri emas, chunki u zot Buroqqa mindirilganlar. Buroqqa esa ruh mindirilmaydi, balki badan mindiriladi" [Abdulqodir Abdurahim 2012, 172].

Oyatdagi "O'z bandasi"dan murod, Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir. Muhammad sallallohu alayhi vasallam doimo Allohning bandasi ekanliklari bilan faxrlanib yurar edilar. Ushbu oyatda u zotning nomlari aytilmay, "O'z bandasi" iborasi ishlatilishi ham Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam faxr hamda eng og'ir paytda u kishi uchun tasallidir [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 179].

Qur'oni karimda "Masjid ul-Harom" iborasi uch narsaga ishlatiladi.

Birinchisi – Ka'bai Muazzama atrofidagi masjid.

Ikkinchisi – Makkai Mukarrama shahri.

Uchinchisi – Makkai Mukarrama atrofida haram uchun belgilangan chegara: kofirlar kirib bo'lmaydigan, ov ovlani, o'simliklari kesilib yoki yulinib bo'lmaydigan, ko'pgina ma'lum ishlar harom etilgan mintaqaga nisbatan ham ishlatiladi.

Ushbu oyati karimadagi "Masjid ul-Harom" iborasi Makkai Mukarrama shahri ma'nosida kelgan.

Isro kechasi Payg'ambarimiz Ka'bai Muazzama atrofidagi masjidda emas, shaharning bir tarafida joylashgan ammalari Ummu Honiyning uyida uxlab yotgan edilar.

"Masjid ul-Aqso"dan murod Shomdagi Bayt ul-Maqdisdir. "Aqso" so'zi uzoq, chet ma'nolarini bildiradi. Masjid esa ibodatxona, sajdagoh ma'nosini bildirishi hammaga ma'lum [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 180].

O'sha paytda Bayt ul-Maqdis Makkai Mukarramaga nisbatan uzoq va eng chetdagi ibodatxona hisoblanar edi. Shuning uchun ham uni "Masjid ul-Aqso" deb nomlanadi.

"Isro" surasining ilk oyatida keltirilganidek, Muhammad sallallohu alayhi vasallam Makkadagi Masjid ul-Haromdan Qudusdagi Masjid ul-Aqsoga sayr ettirilgandir. Me'roj voqe'asi boshlangan joyi hadislarda Hijr, Hatim yoki Ummu Honiyning uylari ekanligi keltiriladi.

Namoz motivi

Bu motivda, besh mahal namozning farz bo'lganligi, Masjid ul-

Aqsoda payg'ambarlar bilan o'qilgan namoz, Madina va Madyanda o'qilgan namozlar, Tur tog'ida o'qilgan namoz, Bayt ul-ma'murda o'qilgan namozlar keltirilgan.

Ichimliklar motivi

Me'roj kechasida Payg'ambar alayhissallomga suv, asal, sut va sharob kabi ichimliklar tortiq qilinadi, ammo payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sutni tanlaydilar.

Osmonlar motivi

Qur'oni Karimda keltirilishicha, osmonlar yetti qavatdir. *Alloh yetti osmonni qandoq qilib tabaqama-tabaqa yaratib qo'ygani-ni ko'rmadingizmi?* (Nuh surasi, 15-oyat ma'no tarjimasi). Me'rojga oid hadislarda ham osmon qavatlari, har bir qavatdagi voqealar birma-bir bayon qilinadi. Bu o'ziga xoslik me'rojnomalarda ham aks etgan.

Payg'ambarlar motivi

Me'rojga oid hadislarda Muhammad (s.a.v.)ni har bir osmon qavatida payg'ambarlar tomonidan qarshi olinishi, ular bilan ko'rishganlari bildirilgan. Hadislarga asoslangan me'rojnoma-lar-ning ko'pida payg'ambarlar haqida so'z yuritiladi. Bu payg'ambarlar Odam alayhissallom, Idris alayhissallom, Ibrohim alayhissallom, Yusuf alayhissallom, Muso alayhissallom, Horun alayhissallom, Yahyo alayhissallom va Iso alayhissallomdir.

Farishtalar motivi

Me'rojnomalarda nomlari zikr etilgan farishtalar Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil alayhissallomlardir. Jabroil alayhissallom me'roj kechasi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni uyg'otgan, me'roj mujdasini keltirgan, ko'ksilarini keng qilgan, shundan so'ng Buroqqa mindirib, yo'lda birgalikda yo'ldosh bo'lgan farishta sifatida zikr etiladi va tasvirlanadi. Jabroil alayhissallomning Sidrat ul-muntahodan nariga o'ta olmasliklari me'rojnomalarda o'ziga xos tarzda ishlangan motivdir. Mikoil alayhissallom me'roj da'vati xabari uchun Jabroil alayhissallom bilan birgalikda kelgan, shaqqus **sod**r hodisasida unga yordamchi bo'lgan, Buroq bilan sayr chog'ida yuganini tutgan farishta o'laroq zikr etiladi va tasvirlanadi. Isrofil va Azroil alayhissallomlar ham me'rojnomalarda zikri keltirilgan farishtalardir. Shuningdek, me'rojnomalarda yetmish ming boshli farishta, Otashkor farishta, Molik, Ismoil, suvoriylar, yettinchi qavat

osmondagi dengiz ichidagi farishtalarning nomlari zikr etilgani ni ko'rish mumkin. Me'roj bilan bog'liq oyatlarning tafsirlarida va me'rojga oid hadislarda bu farishtalardan faqatgina Jabroil alayhis-salomning nomi keltirilgan.

Jannat motivi

Me'rojnomalarda jannati Ma'voning tasviri, hurlar va Tubo daraxti jannat bilan bog'liq motivlar ichida alohida o'ringa ega.

Suv motivi

Me'rojnomalarda suv bilan bog'liq motivlar quyidagilar:

a) yer bilan birinchi qavat osmon orasidagi suv;

b) Sidrat ul Muntaho joylashgan osmondan chiqqan to'rt daryo: Kavsar, Rahmat, Nil, Furot;

Sidrat ul muntaho daraxti ostida Nil va Furot daryolari namoyish qilingan. Bu ular aynan o'sha joydan oqib tushadi, degan ma'noda emas, albatta. Ammo ularning mazkur maqomda Nabiyy sal-lallohu alayhi vasallamga ko'rsatilishi ularning barakali, jannat an-horlari kabi fazilatli, sermanfaat ekanini anglatadi;

c) Salsabil chashmasi;

d) dur ichidagi dengizlar;

e) Arsh oldidagi dengizlar;

f) jannatdagi to'rt irmoq: rangi, hidi, hech bir xususiyati buzilmagan irmoqlar, mazasi o'zgarmagan sutli irmoqlar, ichuvchilarga lazzat baxsh etuvchi sharobdan bo'lgan irmoqlar, asal oquvchi irmoqlar.

Jahannam motivi

Me'rojnomalarda jahannam bilan bog'liq motivlarda harom, foiz va yetim molini yeganlar, zino qilganlar kabi ba'zi insonlarning jazolanishiga doir tasvirlar o'rin olgan.

Obod uy motivi

Hadislarda keltirilishicha, Obod uy yettinchi qavat osmonda, Ka'bai Muazzamaning tepasida joylashgan bir uydir (masjiddir). Uni har kuni yetmish ming farishta tavof qiladi va ularning ko'pligidan bir tavof qilgani yana qaytib kira olmaydi. Yerdan Ka'batulloh qanday ulug'lansa, osmonda "Bayt ul-ma'mur", ya'ni Obod uy ham shunday ulug'lanadi [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 193]. Me'roj kechasi Rasululloh sallallohi alayhi vasallam uni ko'rganlar va tavsif etganlar.

Sidrat ul-muntaho

Lugʻatda “intiho daraxti”, “chegara daraxti” degan maʼnoni anglatadi. Hadisda taʼriflanishicha, u butasimon daraxt boʻlib, chavandoz bir necha oʻn yil ot choptirsa ham uning soyasidan chiqa olmaydi. Uning “intiho” deb nomlanishiga sabab shuki, barcha mahluqotning ilmi oʻsha joygacha yetadi, undan uyogʻida nima borligini Allohdan oʻzga hech kim bilmaydi. Farishtalar ham undan uyogʻiga oʻta olmaydilar. Bu ham gʻaybga taalluqli narsalardan boʻlib, bu haqda oyat va hadislarda kelgan maʼlumotlar bilan kifoyalanish lozim. Uning kayfiyati va boshqa jihatlari Allohning oʻzigagina maʼlum boʻlib, inson aql-u idrokidan ustundir [Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 2014, 162]. Meʼrojnomalarda ham ushbu daraxt alohida tilga olingan. Qurʼoni Karimda ikki oʻrinda, yaʼni “Najm” surasining 14- va 16-oyatlarida Sidrat ul-muntaho nomi zikr etilgan, meʼroj haqida kelgan hadis va rivoyatlarda ham ushbu daraxt nomini uchratish mumkin.

Lavh ul-mahfuz

Meʼrojnomalarda uchraydigan ushbu motiv islomiy asosga tayangandir. Lavh ul-mahfuz – sodir boʻladigan har bir hodisa unda yozilgan kitobdir.

Qalam motivi

Meʼrojnomalardagi tasvirlarga koʻra, inju yoki yoqutdan yaratilgan, siyohi nurdan boʻlgan bir qalam. Muhammad sallallohu alayhi vasallam meʼroj kechasi mazkur qalamning ovozini eshitganlar.

Qaytish motivi

Muhammad sallallohu alayhi vasallam osmonlarga chiqib aylanib, meʼrojini nihoyasiga yetkazganlaridan soʻng Jabroil alayhissalom bilan birgalikda yana Ummu Honiyning uylariga tushadilar. Oʻshanda obdastalari toʻla, koʻrpalarini qanday qoldirgan boʻlsalar xuddi oʻshandoqligicha, yotgan oʻrinlari ham sovimagan holda boʻladi.

Abu Jahlning munosabati motivi

Meʼroj hodisasidan soʻng Abu Jahl bilan koʻrishgan paygʻambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam unga bir kechada Quddusga olib borilib, yana qaytib keltirilganliklarini aytadilar. Bunga ishonmagan Abu Jahl xalqni toʻplab, Rasululloh alayhissalomdan

bo'lgan hodisani yana bir bor aytib berishlarini so'raydi. Muhammad sallallohu alayhi vasallam ularga ham bu voqeani so'zlab beradilar. To'planganlarning bir qismi "Bu ochiq yolg'on-ku, bizning karvonlarimiz bu masofaga ikki oyda borib kelishadi", – deya inkor etadilar. Bir qismi esa Al-Amin bo'lgan Muhammad sallallohu alayhi vasallamning aytganlarini tasdiqlaymiz, deya xursand bo'ladilar. Abu Jahl va uning tarafdorlarining bu xatti-harakatlari me'rojomalarda motiv sifatida olingan.

Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhuning tasdig'i motivi

Abu Jahl va uning tarafdorlari Abu Bakr raziyallohu anhuning uylariga borib, "Muhammad bir kecha ichida Masjid ul Aqsoga borib kelganligini aytyapti. Sen bunga nima deysan?", – deb so'rashadi. Hazrat Abu Bakr raziyallohu anhu esa: "Agar Muhammad sallallohi alayhi vasallam shunday degan bo'lsalar, to'g'ri aytibdilar, men bunga shohidlik beraman. Men u kishining bundan g'aribroq narsasini ham tasdiqlayman. Osmondan xabar aytishini ham tasdiqlayman", dedi. Shundan Abu Bakr "Siddiq" – o'ta tasdiqlovchi, deb atala boshladilar¹. Bundan ulug' sahobaga martabalarini ulug'lovchi laqabning berilishi bevosita Rasululloh sallallohi alayhi vasallamga mustahkam ishonchlari va me'roj voqeasi bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Masjid ul-Aqso motivi

Muhammad sallallohi alayhi vasallam bir kechada Masjid ul-Aqsoga borib kelganligiga ishonmaganlar, bu safar Rasululloh alay-hissalomdan Masjid ul-Aqsoni sifatlab berishlarini talab qiladilar. Masjid payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga ko'rsatiladi. U zot sollallohu alayhi vasallam ularga masjidni vasf qila boshlaydilar. Ular nima so'rasalar, barcha savollariga payg'ambar sallallohu alayhi vasallam to'g'ri javob berdilar. Shunda ular "Ammo vasfini to'g'ri qildi", deyдилar [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 183].

Karvonlar motivi

Muhammad sallallohu alayhi vasallamning Masjid ul-Aqsoni to'g'ri sifatlab berishlariga qaramasdan, u kishiga ishonmaganlar bu safar endi yo'ldagi karvonlari haqida xabar berishlarini so'rashadi. Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam ularning karvonidagi tuyalar soni, ahvoli haqida to'liq xabar berib, "Karvon falon kuni, quyosh

¹ Arablarda kishilarni nomlash uch qismga bo'linadi. Agar nom madh yoki mazammat ma'nosini anglatga laqab bo'ladi. Agar nom Abu, Ummu, Ibn va Bint so'zlari bilan boshlansa kunya bo'ladi. Agar bu ikki narsaga oid bo'lmasa ism bo'ladi.

chiqish paytida yetib keladi. Oldinda kulrang tuya bo'ladi", deyдилar. Karvon shaharga kirib kelganda aytilgan xabarlarining barchasi to'g'ri chiqadi. Ammo shundoq bo'lsa ham ular iymon keltirmaydilar. Isro hodisasi buyuk mo'jiza edi. Buni bilgandan keyin iymon keltirmoqlari lozim edi. Biroq iymon keltirmaydilar [Shayx Muhammad Sodiq 2006, 184].

Turkiy me'rojnomaalarda boshqa motivlarni ham uchratish mumkin. Yuqorida keltirilgan motivlarning barchasi ayni bir asarda to'liq uchramasa-da, me'roj mavzusiga bag'ishlangan asarlarga xos umumlashgan motivlar deyish mumkin.

Xulosa

Islom madaniyatining yorqin namunalaridan hisoblangan me'rojnomaalarni yozishda irod ahli oyat va hadislarga tayanganlar. Bu esa ularning aqoid, Qur'on ilmi, hadis, Islom tarixi, tafsir kabi diniy ilmlarni puxta o'zlashtirganlikaridan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda:

Me'rojnomaalarda dastlab Isro voqeasiga doir motivlar, shundan so'ng Me'roj voqeasiga bog'liq motivlar o'rin olgan bo'lib, unda voqealar rivoji davriy tartibda kechgan.

Islom tarixida muhim voqealardan bo'lgan Me'roj mo'jizasi deyarli barcha musulmon xalqlari tamaddunida alohida o'rin egalagan, mumtoz adabiyotda, xalq og'zaki ijodida, xattotlik va kitobat san'atida o'ziga xos tarzda aks etgan.

Isro qissasi islomiy da'vatning bir davri tugab, yangi bir davri boshlanish arafasida ekanini ko'rsatadi. Besh vaqt namoz ham Isro kechasi Me'rojda farz qilingani insoniyat tarixidagi ulkan hodisa bo'lib, bu uning boshqa islomiy ruknlardan farqli jihatidir.

Tasavvuf adabiyoti namoyandalari o'z asarlarida Isro va Me'roj voqealarini bayon etuvchi maxsus boblar ajratishini ularning mazkur hodisaga nisbatan mustahkam ishonchlari bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Me'rojnomaalar uslubi yuksak balog'at darajasida bitilgani mualliflarning bu ilmni yaxshi o'zlashtirganligi va amalda qo'llay olganligini ko'rsatadi.

Turkiy adabiyotda Me'roj mavzusiga alohida ahamiyat berilishi va irod ahlining bu borada ko'p asarlar bitishidan ko'zlangan maqsad o'quvchida go'zal xulqni shakllantirish edi. Badiiy-estetik ta'sirini oshirish uchun mualliflar o'z asarlarida badiiy san'at va tasvir vositalaridan unumli foydalanganlar. Me'roj mavzusiga bag'islangan asarlar turkiy adabiyot va adabiy tilning, shu bilan birga matnshunosligimizning eng sara namunalaridandir.

Adabiyotlar

- Абдулқодир Абдурахим. 2012. *Эътиқод дурдоналари*. Тошкент.
- Абу Малик бахши. *Меърожнома*. Қўлёзма. Париж миллий кутубхонаси Suppl. Turc. бўлими №190.
- Алишер Навоий. 2019. *Лисонут-тайр*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Akar Metin. 1987. *Türk Edebiyatında Manzum Mi'râc-nâmeler, Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları*. Ankara.
- АН-НАИМ. 2003. Арабча-ўзбекча луғат. Тошкент.
- Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград.
- Hasan Şener. 2016. "Türk edebiyatında mi'râciyye geleneği ve harputlu Rahmî'nin Beyân-i mi'râc başlıklı manzumesi". *The Journal of International Social Sciences*. Elazığ.
- Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâme, Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel* Composé A.H. 840/1436-1437. Amsterdam.
- Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. 2014. *Саҳиҳул Бухорий*. Олтин силсила 5-жуз. Тошкент.
- Муборакфурий Саффиюррахмон. 2019. *Ар-Раҳиқул махтум*. Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти.
- Саййид Муҳаммад Ҳасаний. 2019. *Икки олам сарвари*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 352б.
- Нуриддин Али ат-Талиқоний. *Меърожнома*. Қўлёзма. Истанбул Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди №2848.
- Шайх Абдулазиз Мансур. 2019. *Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири*. Тошкент: Sano-standart.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2006. *Ҳадис ва ҳаёт*. Нубувват ва рисолат 19-жуз. Тошкент: Sharq.
- Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. 2012. *Тафсири Ҳилол*. 6 жуз. Тошкент: Sharq.
- <https://islom.uz/view/lakab-va-kunya>
- [https:// siyrat.uz](https://siyrat.uz).

Motives in Turkic Mi'rajnama

Jahongir Turdiev¹

Abstract

The culture of the Muslim country has passed through a number of stages of perfection in its spiritual ascent. Among these stages, the tariqat (doctrine) of tasawwuf (Sufism) holds a special place, which is considered important in a person's improvement to the status of ikhsan. It is well known that the tariqat of tasawwuf is the path of piety, and the path begins with purification of the soul. This stage in the spiritual development of the region began to be reflected in the arts. As a result, Sufi literature emerged. Sufi views began to take the center stage in literature from the 12th century onwards. The writers of that period mastered the science of tasawwuf thoroughly, and this reflected in their lifestyle and way of life. The works written by them and which have survived the present day also verify this idea. The subject of Isra and Mi'raj has a special significance in Sufi literature. Many writers have devoted special chapters in their works. In general, the prose and poetry devoted to the events of Isra and Mi'raj are an integral part of Sufi literature. This article is devoted to the analysis of the motives that underlie the Turkic traditions. It examines the reasons for writing mi'rajnames in Turkic literature, their structure, and the motifs introduced the basis of reliable sources.

Key words: *Sufi literature, Mi'rajnama, Isra, genre, motive, Islamic history, bibliography.*

References

- Abdulqodir Abdurahim. 2012. *E'tiqod durdonalari*. Toshkent.
- Abu Malik baxshi. Me'rojnoma. Qo'lyozma. Parij milliy kutubxonasi Suppl. Turc. bo'limi №190.
- Alisher Navoiy. 2019. *Lison ut-tayr*. Toshkent. Yangi asr avlodi.
- Akar Metin. 1987. *Türk Edebiyatında Manzum Mi'râc-nâmeler, Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları*. Ankara.
- AN-NAIM. Arabcha-o'zbekcha lug'at. 2003. Toshkent.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad.

¹ *Jahongir Z. Turdiev* - PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: jahongirshoh15@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5244-8542

For citation: Turdiev, J. Z. 2021. "Motives in Turkic Mi'rajnama". *Golden scripts* 2: 20–33.

- Courteille, Pavet de. 1882. *Mirâdj-nâme, Récit de l'Ascension de Mahomet au Ciel Composé A.H. 840/1436-1437*. Amsterdam.
- Hasan Şener. 2016. *Türk edebiyatında mi'râciyye geleneği ve harputlu Rahmî'nin Beyân-i mi'râc başlıklı manzumesi*, The Journal of International Social Sciences. Elaziğ.
- Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. 2014. *Sahihul Buxoriy*. Oltin silsila 5-juz. Toshkent.
- Muborakfuriy Saffiyurrahmon. 2019. *Ar-Rahiqul maxtum*. Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti.
- Nuriddin Ali at-Taliqoniy. *Me'rojnoma*. Qo'lyozma. Istanbul Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi №2848.
- Shayx Abdulaziz Mansur. 2019. *Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri*. Toshkent: Sano-standart.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2006. *Hadis va hayot*. Nubuvvat va risolat 19-juz. Toshkent: Sharq.
- Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2012. *Tafsiri Hilol*. 6-juz. Toshkent. Sharq.
- Sayyid Muhammad Hasaniy. 2019. *Ikki olam sarvari..* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- <https://islom.uz/view/lakab-va-kunya>
- <https://siyrat.uz>.

MATNSHUNOSLIK
TEXTOLGY

“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari

Abdimurod Arslonov¹

Abstrakt

O'zbekiston hududida xalq kitobi ko'rinishida vujudga kelgan Amir Temur haqidagi qissa va dostonlar alohida silsilani tashkil etadi. Ularning muayyan qismi forsiy tilda, boshqa bir qismi turkiy-chig'atoy tilida bitilgan. Istiqloq yillari Amir Temur tarixini keng ko'lamda o'rganish izga tushdi. Sohobqiron siymosining badiiy talqiniga ham e'tibor qaratildi. Bugunga kelib o'tmish ijodkorlari yaratgan badiiy asarlarni matniy tadqiq etish bir qadar yo'lga qo'yilgani e'tirofga loyiq. Lekin, ta'kidlash joizki, asriy an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-madaniy boyliklarimizni tiklash, badiiy merosimizni xolis o'rganish masalasida hali muammolar o'z yechimini to'laligicha topgan emas. Jumladan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohobqiron Amir Temur hayotiga bag'ishlab yozilgan “Temurnoma”lar matni va ularning qo'lyozma manbalarini monografik tarzda o'rganishga zarurat bor. Shu bois bu shaxs hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan badiiy-tarixiy asarlar qo'lyozmalarini qiyosiy-matniy o'rganish va “Temurnoma”larni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik erishgan yutuqlar asosida qayta tadqiq qilish dolzarb muammolardan sanaladi. Shunga ko'ra, Amir Temur hayoti va uning hukmronlik davri yoritilgan “Temurnoma” kabi badiiy-tarixiy asarlarni qiyosiy-matniy tadqiq etishga katta ehtiyoj bor. Ushbu maqolada Amir Temurga bag'ishlab yozilgan badiiy-tarixiy asarlarning qo'lyozma manbalari matniy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *matniy tadqiq, qo'lyozma, an'anaviy qolip jumla, xalq kitoblari, tarixiy-madaniy meros.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi

¹ Arslonov Abdimurod Karomatovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti.

E-pochta: arslonova@tersu.uz

ORCID ID: 0000-0003-0553-6624

Iqtibos uchun: Arslonov A. K. 2021. “Temurnoma”larning matniy xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 2: 34–49.

“Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorida “tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur oʻrganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qoʻshgan beqiyos hissasini targʻib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimiz buyuk maʼnaviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish” lozimligi koʻrsatib oʻtilgan. Qarorda koʻrsatilgan vazifalarni bajarishda bizdan talab etiladigan ishlardan biri – badiiy adabiyot, xususan, qadimiy va boy adabiyotimiz tarixi, mumtoz adabiyotimiz namunalarini jiddiy oʻrganishdir.

Bugunga qadar yurtimiz qoʻlyozma fondlarida turli mualliflar tomonidan Amir Temurga bagʻishlab yozilgan adabiy asarlarning yigirmadan ortiq nusxasi bizgacha yetib kelgan. OʻzFA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida Said Muhammadxoja bin Jaʼfarxojaning “Dostoni Amir Temur” asarining uch nusxasi saqlanadi. Fondga mavjud 5738, 4105 va 185 inventar raqami bilan saqlanayotgan qoʻlyozma manbalarning matnii xususiyatlarini tadqiq etish muhim masalalardan.

Asosiy qism

5738-raqamli qoʻlyozma hijriy 1304-yili (milodiy 1886) nastaʼliq xatida koʻchirilgan. Ayrim sahifalarda soʻzlar boʻyalgan, ustiga chizilgan holatlar ham uchraydi. Sarlavhalari qizil rangda berilgan. “Temurnoma”lar nasriy yoʻlda yozilganligi bois voqealar xalq kitoblarining tuzilishiga xos boʻlgan anʼnaviy qolip jumlar bilan boshlanadi. Ushbu manbada ham bu xildagi variantlarning quyidagi shakllari mavjud:

1. *Hikoyati roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisi dostoni koʻhan va haddasa chunoni suxan, ammo noqiloni daftaru roviyon shirin moʻtabar hikoyat va soʻz andogʻ taʼyin qilurlarkim, ... [2^a-2^b];*

2. *Sohibi tavorix andogʻ aytubdurlarkim roviyoni dafataru noqilon shirin moʻtabar andogʻ taʼyin qilurlarkim, ... [66^b];*

3. *Ammo roviyon axbori noqilon osori andogʻ rivoyat qilurlarkim... [75^b];*

4. *Fihris kalom, az naql saranjom, ammo roviyoni axbor sohibi hol va noqiloni hikoyati shirin maqol izdi bezavol va barkamol birla sohibi tavorix andogʻ ravoyat qilurkim, ... [98^a];*

5. *Xotami roviyon, axboru noqilon osor loyiq sodiq hikoyat kunandai suxan muvofiq ba tabʼ sharif ashrafi oliyya xush kelgay deb*

muxtasar soʻz taʼyin qilurlarkim, ... [103^a-103^b].

Xalq kitoblarida asar boblarining boshlanma qismida “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim” kabi anʼanaviy jumlar nasriy qissalarga ham xosdir. Shuningdek, bir voqeadan ikkinchi bir voqea bayoniga oʻtishda anʼanaviy boshlanma qolip jumalarning quyidagi shakllari ham keng qoʻllaniladi:

“Alqissa, kunlardan bir kuni hazrati imom Sadra-sh-shariʼa miqdori toʻrt yuz toʻrt ming tolibi ilmlargʻa madrasada darsgoʻylik qilib oʻlturib erdilar...” [3^a];

“**Alqissa**, Bekinabegim xatni koʻrgʻach koʻpdin koʻp betoqat boʻlib, Yoʻqunxonim kundoshlarining oldigʻa kirib aydilararkim...” [8^a];

“Roviylar andogʻ rivoyat qilurlarkim, Amir Qaragʻanning otasidan qolgan bir sohibjamol xotin qolib erdi va aning oti Boygʻunxonim...” [71^a];

“Filhol, hazrat Shayxul-olam duo qilib bir-ikki marta “kuf-suf”, deb dam soldilar ersa, oʻshal hol ojizalari sogʻaydi...” [3^b];

“**Filhol**, Amir Tagʻoy Bahodir eshikdan kirib keldilar...” [5^a].

“Alqissa” kirish soʻzi “Temurnoma”larda alohida oʻringa ega. 5738-raqamli qoʻlyozma manbada ushbu kirish soʻzi 280dan ortiq oʻrinda ishlatilgan va bularning aksariyati qizil rangda berilgan. U, nafaqat, fasllar boshlanmalarida, balki ichida, muayyan voqealarning oʻrin almashinuvi yoki voqelik bayonida muallifning taʼkidni kuchaytirish, alohida soʻz hamda fikrga urgʻu berish maqsadida ham qoʻllangan.

Qoʻlyozma nusxada xattot tomonidan tushirib qoldirilgan soʻzlar hoshiyada “qanotcha” belgisi bilan berib boriladi. Masalan, manbaning 1^b sahifasi beshinchi qatoridagi “...aql-u xush va fahm-u idrok zehn birla oʻzini tonutti...” gapida “birla oʻzini” soʻzi asosiy matndan tushib qolgan va xattot bu soʻzni “qanotcha” belgisi bilan hoshiyada beradi. Xuddi shu kabi holatlar qoʻlyozma 7^a sahifasining oʻninchi qatoridagi “...shahri Samarqandda bir Otasuluk degan zo-hidiy bor ermishkim, oʻzlariga gʻorni vatan qilib, kecha-kunduz toa-ti xudoni qilur ermish...” gapidagi “...kim, oʻzlariga gʻorni vatan qilib, kecha-kunduz toati xudoni qilur ermish” jumlasini, 8^a sahifa toʻrtinchi qatordagi “Emdi bisyor besihat kasalmand boʻldum va Yoʻqunxonim qizimizgʻa ham bisyorsalom, Bekinabegimni bizga tezroq yuborsin-larkim...” gapidagi “besihat kasalmand boʻldum va Yoʻqunxonim qizimizgʻa ham bisyor” jumlasini, 29^a sahifa toʻrtinchi qatordagi “Haz-rati Amur Temur sohibqironni biri boshlab ularning xizmatlarigʻa olib bordilar” jumlasidagi “sohibqiron” soʻzining “sohib” qismi, 100^a sahifaning sakkizinchi qatoridagi “...akobir fuzalo va ulamoyi Bagʻdod

birla sulton Ahmad maslahat va mashvarat qildilar, aydilar kim: “Ey sulton Ahmadsizdin insof...” gapidagi “maslahat va mashvarat qildilar, aydilar kim: “Ey sulton Ahmad” jumlasini, 104^a sahifa 2-qatoridagi “Alqissa, bu voqeani Muoviyai soniy Shom aimmai ulamolarig’a bayon qildi...” gapidagi “Muoviyai soniy” so’zi “qanotcha” belgisi ostida hoshiyada berilgan.

Qo’lyozmadagi 12ta she’rning har bir misrasi uchta qizil nuqta bilan ajratib yozilgan. Sharq xattotlik san’ati tarixida, odatda, nasriy asarlar tarkibida keladigan Qur’on oyatlari, hadislar va shu bilan birga nazmiy parchalarni asosiy matndan ajratib ko’rsatish uchun uchta qizil nuqtadan foydalanish va “bayt” deb sarlavha qo’yish an’ana bo’lgan. Mazkur qo’lyozmada keltirilgan she’riy parchalar ham “bayt” sarlavhasi ostida, har bir misra uchta qizil nuqta bilan ajratib ko’rsatilgan.

Nusxaning ayrim sahifalari, xususan, 55^a sahifaning 5-6-qatoridagi ba’zi so’zlar, 62^a sahifaning 10-11-qatoridagi so’zlar, 65^b-66^a sahifadagi ayrim so’z va jumlar bo’yalgan, 66^b-67^a sahifaning deyarli barcha qatorlaridagi so’z va jumalarda siyoh chaplanish holatlari uchraydi. 67^b sahifadagi 9-11-qatorlarni, 68^a sahifadagi 8-10-qatordagi ayrim jumalarni o’qish imkonsiz (ushbu qatorlar asarning 185, 4105/II raqamli nusxalari asosida tiklandi).

O’zbek mumtoz nasri arabiy va forsiy so’zlarning ko’p qo’llanishi bilangina emas, bu tillardagi mikromatnlardan keng ko’lamda istifoda qilinishi bilan o’ziga xos xususiyatga ega. Bu holat “Temurnoma”larda, jumladan, 5738-raqamli nusxada ham ko’p uchraydi. Asar matnidagi arabiy kiritmalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Qur’oni Karim oyatlari

Ularning ba’zilari muayyan oyatning aynan ko’chirmasi bo’lsa, ayrimlari muayyan oyatning bir qismidan iborat:

خَلِيفَةُ الْأَرْضِ فِجَاعِلَانِي – “Baqara” surasi 30-oyatdan juzv “Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman” [96⁶];¹

آدَمَ بَنِي كَرَمًا وَلَقَدْ – “Isro” surasi 70-oyatdan juzv “Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo’ydik” [96⁶];

وَإِذْ قُلْنَا لِلْمَلَكَةِ اسْجُدُوا لِآدَمَ فَسَجَدُوا إِلَّا إِبْلِيسَ – “Baqara” surasi, 34-oyatdan juzv: “Esla farishtalarga: “Odamga sajda qilinglar!” deganimizni. Bas, sajda qildilar, magar iblis bosh tortdi...” [97^a];

وَعَلَّمَ آدَمَ الْأَسْمَاءَ كُلَّهَا – “Baqara” surasi, 31-oyatdan juzv: “Va U

¹Qur’oni Karim oyatlari va ularning juzvlari tarjimasi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tafsiri hilol” asaridan olindi.

Odamga ismlarning barchasini o'rgatdi..." [97^a];

كُلُّ نَفْسٍ ذَائِقَةُ الْمَوْتِ – "Oli Imron" 185, "Anbiyo" 35-, "Ankabut" 57-oyatlar: "Har bir jon o'lim sharbatini totguvchidir" [97^a];

كُلُّ شَيْءٍ هَالِكٌ إِلَّا وَجْهَهُ – "Qasos" surasi, 88-oyat: "Undan o'zga har bir narsa halok bo'lguvchidir" [97^a];

قُلْ لَا أَسْأَلُكُمْ عَلَيْهِ أَجْرًا إِنْ سِيزِلَارْدَان بُونِغ_UCHUN H_AQ SO'RAMASMAN..." [107^b].

Hadisi shariflar

Qola-n-nabiyu alayhis-s-salom:

لَعَلِّي يَا عَلِيٌّ مِنْ لَا يَحْبِبُكَ الْاُمُوْعَمْنِي تَقِي وَلَا يَغْضِيْبُكَ الْا مَنَافِقُ شَقِي – Nabiy alayhis salom dedilar: Yo Ali, taqvoli va mo'min kishilardan boshqa kishi seni sevmaydi, baxil va munofiq kishilardan boshqalar sendan g'azablanmaydi [107^b].

Qola-n-nabiyu alayhis-s-salom:

سَتَفْرَقَا اُمْتِي عَلٰى ثَلَاثَةِ وَ سَبْعِيْنَ فَرْقَةً كُلَّهُمْ فِي النَّارِ اِلَّا نَاجِيَهُ – Nabiy alayhi-s-salom dedilar: "Mening ummatim yetmish uch firqaga bo'linadi, ularning hammasi do'zaxiydir illo bir jamoa "noji'a" – najot topuvchidir [18^b].

An'anaviy duolar

Badiiy-tarixiy nasr namunalarida duolarning, asosan, oxirat obodligi va hukmdorlikni emin hamda uzun bo'lishini tilash turlari uchraydi. "Temurnoma"lar matnida islomiy manbalarda takrorlanuvchi an'anaviy duolarning bir necha ko'rinishlari mavjud:

رَحِمْتَ اَللهُ عَلَيْهِم – Unga Allohning rahmati bo'lsin [2^a];

اٰمِيْنَ يَا رَبَّ الْعٰلَمِيْنَ بِرَحْمَتِكَ يَا اَرْحَمَ الرَّاحِمِيْنَ [111^a] – Omin, ey olamlarning Robbisi, ey rahmlilar rahmlisi, o'zingning rahmating bilan.

تَمَتَّ الْكِتَابَ بِعَوْنِ الْمَلِكِ الْوَهَّابِ اَللّٰهُمَّ اغْفِرْ لِيْ مِنْ كُتْبِهِ وَ مِنْ طٰلَعِهِ وَ مِنْ سَمْعِهِ وَ مِنْ نَظَرِهِ – Allohning madadi bilan kitob tugadi. Ey Allohim, yozganni, mutolaa qilganni, eshitganni va nazar solganni o'zing mag'firat qil.

An'anaviy sharaflash kalimalari

"Temurnoma"larda muallif Allohni, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni, aziz avliyolar va ilm ahli, xon yoki uning amaldorlarini tilga olganda an'anaviy sharaflash kalimalaridan foydalalanib, o'z munosabatini bildirgan. Sharaflash kalimalari badiiy-tarixiy nasrning boshqa namunalarida bo'lgani kabi ko'proq arab va fors tillarida kiritilgan:

حَمْدٌ بِيْحْدٍ وَثَنًاى بِيْعِدْدٍ اَوَّلُ خَالِقِ السَّمٰوٰتِ بِغَيْرِ عَمْدٍ وَفَرْدٌ وَ حَمْدٌ وَذَوَالْجَلَالِ بِيْ زَوَالٍ وَ لَا

يزال بركمال و آگاه كل حالغه... – Jaloli zavol topmaydigan, sifati barkamol va azaliy Zot bo'lgan, osmonlarning Yaratuvchisi, hech kimga hojati tushmaydigan yakkayu yagona Alloh taologa bitmas-tuganmas hamdu sanolar bo'lsin [2^a].

سيدالكونين وامام الحرمين وقرته العينين وجد السيطيين وشفيع من في الدارين حبيب – Ikki olam sayyidi, ikki haram imomi, ikki ko'zning nuri, ikki yosh bolaning (Imom Hasan va Imom Husaynga ishora) bobosi, ikki olamning Haq yo'lidagi himoyachisi, duosi ijobat bo'ladigan nabi, ikki yelkasida nubuvvat muhri sohibi – Allohning sevimli habibi Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallamga salotu salomlar bo'lsin [2^a].

جهار يار با صفايعنى حضرت صديق وال فاروق وذون النورين ومرضى ايمه رضوانالله – Safo sohibi bo'lgan To'rt do'st – Hazrati Siddiq (tasdiqlovchi – Hazrati Abu Bakr), al-Foruq (xayr va sharrni ajratuvchi – Hazrati Umar), Zunnurayn (ikki nur sohibi – Hazrati Usmon), Murtazo (undan rozi bo'lgan – Hazrati Ali) va imomlarning barchasidan Alloh taolo rozi bo'lsin [2^a].

امام سراج دين ابو حنيفه كوفى صوفى رحمت الله عليهم bo'lgan Abu Hanifa Kufiy so'fiyga Allohning rahmati bo'lsin [2^a].

مسندنشين وتخت خلافته خاقان ابن الخاقان ابو المظفر والمنصور سيد امير يادگار – xalifalik taxti sohibi va suyanuvchisi hoqonning o'g'li Abul Muzaffar val Mansur Sayyid Amir Yodgor Muhammad Bahodirxon [2^a].

Asar voqealari hamd, na't kabi an'anaviy kirishlar hamda kitobning yozilish sabablarini bayon qilgan muqaddimadan so'ng quyidagi boblarda bayon etilgan:

1. *Emdi Amir Temur sohibqironning paydo bo'lg'onlaridin aytoluk* [2^b];

2. *Alqissa, emdi so'zni Amir Temur sohibqironning tavalludlaridin aytayluk* [6^b];

3. *Alqissa, roviylar andoq rivoyat qilurlarkim, Amir Temur sohibqiron Xoja Arabning uyinda inoyati parvardigor o'shal kecha taval-lud bo'lg'onlari buturur* [9^b];

4. *Ammo fasl doston bayon guftgo'y malahada anga niholi iqbol bo'ston kalimayi tayibag'a shamoli kufr solg'on Nosir Xisrav ot-lig' malohadaning bir necha mo'minlarg'a rohi zalolatni yoyg'oni hi-koyatidur* [17^b];

5. Hikoyati dostoni sabab Amir Temur sohibqironning xuruju nishonai tarbiyatlari Hazrat Bahovuddin modarzod avliyo rahmatullohi alayhi buturur [51^b];

6. *Hikoyati dostoni Hazrati Sayyid Ota rahmatullohu qudsi sir-*

ra butururlar [53^b];

7. *Hikoyati dostoni sababi xuruj hazrat Amir Temur sohibqiron-din rivoyat qilayluk* [66^b];

8. *Hikoyati doston hazrat Amir Temur sohibqiron viloyati Hindistonni fath qilg'onlari* [75^b];

9. *Hikoyati dostoni sababi xuruj hazrat Amir Temur sohibqiron fathi poytaxti Maluxon* [83^b];

10. *Hikoyati doston hazrat Amir Temur sohibqiron Odam Safiyulloh otamiz sallallohu alayhi vasallamning muborak qabrlarin ziyorat qilib, tilsimi Iskandarni sindurub va ruh har futuh Odam otamiz Safiyullohdin ruxsat olg'onlari* [90^b];

11. *Qissai fathi Shom* [98^a];

12. *Hikoyati dostoni xotima va bayoni hazrat Amir Temur sohibqiron Ka'bai muazzamni tavof aylab va ziyorati Haji Umra bajo kelturub o'z diyorlarig'a yoyg'onlarini bayoni buturur* [109^a].

Asarda keltirilgan voqealarning umumiy manzarasi, yo'nalishi shulardan iborat. Muallif asarda badiiy tasvirga xos kichik voqealarni ham xalq kitoblari usulida mahorat bilan tasvirlagan.

185-raqamli qo'lyozma sarlavhasiz "Bismillohir Rahmonir Rahim" kalimasi bilan boshlanadi. Manbaning muqaddima qismi, ya'ni birinchi sahifa qizil siyoh bilan ramkaga olingan, qolgan sahifalarda ramka mavjud emas. Sahifalarda sarlavhalar qo'yilmagan, biroq ba'zi o'rinlarda sarlavha uchun joy qoldirib ketilgan. An'anaviy qolip jumlar ushbu manbada ham anchagina, lekin bu jumlar yuqoridagi 5738-raqamli qo'lyozma nusxadagi kabi matndan ajratib qizil siyoh bilan yozilmagan.

Unda ham asosiy matndan tushib qolgan so'z va jumlar xattotning qayta tahriri jarayonida "qanotcha" belgisi ostida hoshiyada berib borilgan. Bular quyidagilar:

4^a sahifada "...alovati pahlavon...";

5^b sahifada "...bu tarafdin Mirzo Sayfuddin Amir Chokuni o'g'li ot o'ynatib maydong'a kirdi, ul tarafdin Qato' degan andijoniy maydong'a kirdi...";

6^a sahifada "... ayturlarkim ul vaqt Nosir Xisrav xizmatida Ko'r Qavchin degan bir muridi ko'r bor erdi. Andog' tirandoz edikim, ikki kamonni qo'lg'a olib ani nishonag'a to'g'ri qilib bersalar masofat bir farsang yerdin nishonani bexato urar erdi. Mal'unlar aning kelturub, muhoziy lashkari Bayonqulixong'a o'tqurdilar kamonni qo'lig'a berib tug'i Baroqxonni nishona bog'ladilar. Miqdori yarim farsangdin tug' podshohni chunon urdiki, tug' yaku nisor bo'lub yiqildi. Andin islom cheriki vahm xavotirg'a tushub va yana...";

6^b sahifada “...ul kecha mavlono voqea ko’rdilarki...”;

8^a sahifada “...ey musofir, turg’il bul podshohning qizi turur...”;

10^b sahifada “...oyog’” kabi so’z va jumlarlar.

Ushbu qo’lyozmada kotib tahririning o’ziga xos tomoni shundaki, unda so’z, jumla va gaplar bilan birga bir necha gapdan iborat matnlar ham tuzatish sifatida hoshiyada berilgan.

Qo’lyozmadagi she’riy parchalar ajratib ko’rsatilmay, matn ichida nasriy yo’lda berilgan. Ushbu manbada ham ayrim so’zlar bo’yalgan yoki ustidan chizib to’g’irlangan, biroq bunday holatlar mazkur manbada juda kam uchraydi. Boshqa qo’lyozmalardagi kabi unda ham Qur’oni Karim oyatlari, hadisi shariflar va an’anaviy duolar arab tilida beriladi. Sharaflash kalimalari esa arab yoki fors tilida kiritilgan. Fasllar nomlanishi, arabiy va forsiy matnlar 5738-raqamli nusxa bilan bir xil, shu bois ularni qayta istifoda etmadik.

4105-raqamli qo’lyozmada “Temurnoma” matni 7^b-sahifadan boshlanadi. Asardagi ayrim voqealar bayonida keyinchalik qora qalam bilan sarlavhalar yozilgan. Masalan, manbaning 10^a betida qalam bilan قصة تيمورنامه (Qissai Temurnoma) deb sarlavha qo’yilgan. Bu sarlavhalar xattot tomonidan emas, balki keyinchalik biror kitobxon yoki qo’lyozma fond xodimlari tomonidan yozilgan bo’lishi mumkin. Xuddi shu kabi qalam bilan qo’yilgan sarlavhalar quyidagi ko’rinishda:

13^b – كرامت شيخ “Karomati shayx”;

17^a – مناجات “Munojot”;

19^a – تولد صاحبقران “Tavalludi Sohibqiron”;

22^b – امر خاكو “Amir Xoku”;

29^a – قصة ناصر خسرو “Qissai Nosir Xisrav”.

Mazkur qo’lyozma ham kotib tomonidan qayta tahrir qilingan bo’lib, asosiy matndan tushib qolgan so’z va jumlarlar yuqoridagi ikki qo’lyozma nusxadagi kabi qanotcha belgisi ostida hoshiyada berib boriladi. Masalan:

47^b sahifada “bu dunyoning zavqin xohlamaydurmiz”;

59^a sahifada “...sizdan ham ayrilib diydor qiyomatg’a qolmasun deb ruxsat bermadi...”;

74^b sahifada “...Sayyid Ota O’zbekxonning oldiga ro’baro’ chiqtilar...”;

87^b sahifada “...qoplون minib...”;

98^a sahifada “...mo’rmalaxdek bosib poymol qilib, Qarshu ke lib falon yerga kelib tushti va yana so’ngidin dasta-dasta, to’b-to’b...”;

98^b sahifada “...va lashkari mo’g’ul tabl qoqib, qalin saf tortib...”;

111^a sahifada "...Amir Temur Sohibqiron...";

129^b sahifada "...alassaboh maydonga Amir Temur chiqsun...";

131^a sahifada "...otamiz Odam safiyullohning yaratgan..." jumalari qanotcha belgisi ostida hoshiyada istifoda etilgan.

Nazmiy parchalar esa ushbu manbada har xil ko'rinishda berilgan. Ayrim she'rlar "bayt" sarlavhasi ostida nazmiy asarlardagi kabi jadval ichida berilgan bo'lsa, boshqalari ikki ustun shaklida, ba'zi she'rlar (ruboiy, masnaviy va munojotlar)ning har bir misrasi 5738 qo'lyozma manbadagidek qizil rangli uch nuqta bilan ajratib ko'rsatilgan.

Qo'lyozmadagi arabiy, forsiy mikromatnlar (Qur'oni Karim oyatlari, hadisi shariflar, an'anaviy duolar) qizil siyoh bilan ko'chirilgan yoki matn osti qizil rangda ajratib ko'rsatilgan.

Ҳайитметов, А. 1996. "Шеърки, ҳам тушти менинг бошима". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати* 9 февраль.

Шамсиев, П. 1969. *Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари*: Филология фанлари доктори... дис. Тошкент.

8291 اده بیاتی نه مونه له ری / ۱ جیلد، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ند، از بیک

حمسه. نوابعلیشیر. Котиби Муҳаммад Юсуф бинни Бердимурод сўфи, Хива, 1880.

The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa

Giyosiddin Shodmonov¹

Abstract

In the middle of the last century in the field of Uzbek textology and source studies, significant achievements have been made in the study of Alisher Navoi's works, in particular, in implementation of mass publications of the poet's epics "Khamsa" and compilation of their scientific-critical texts. Porso Shamsiev is a textologist who created a school for the study of manuscripts of the Khamsa epics and composed its scientific and critical texts. His contribution to many publications created during this period is great. Therefore, the study of scientific and practical activities of the scientist in this field, the acquisition of his scientific experience, as well as the theoretical examination of publications made by P. Shamsiev and his direct participation are among the priorities of textology studies. Of course, the study of the activities of scholars, the mastery of their experience in publishing and composing scientific-critical texts is very important in the formation of new views in the field of textology, its scientific and theoretical basis, in general, in finding solutions to existing problems. This article analyzes the history of the publication of the epics "Khamsa" and related processes, in general, the first achievements of Uzbek textual studies, the experience gained and their significance, as well as relevant scientific con-

¹ Giyosiddin N. Shodmonov – Doctoral student of Karshi State University.

E-mail: shodmonov786@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0778-8385

For citation: Shodmonov, G.N. 2021. "The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa". *Golden scripts* 2: 50-63.

Key words: *textology, source studies, Navoi, Hamsa, manuscript, copy, scientific-critical text, publication, epic, work, volume, prose statement, explanatory, dictionary.*

References

- Alisher Navoiy. 1940. *Xamsa*. Qisqartirib basmaga tayyarlavchi S.Ajniy. O'quvpednashr. Toshkent.
- Hamroeva, O. 2019. *XX asr boshlarida o'zbek matnshunosligi taraqqiyotida Fitrat majmualarining o'rni*. Toshkent: Akademnashr.
- Jabborov, N. 2020. "Matn tarixini o'rganishning muqobala uslubi". *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari: Respublika II ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. Toshkent: Fan.
- Juraboev, O. 2017. *Matnning matnosti sirlari*. Toshkent: Tamaddun.
- Karimov G'. 1944. Navoiyning "Layli va Majnun" asari kritik teksti: Filologiya fanlari nomzodi... diss. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1948. *Farhod va Shirin*. Tanlangan asarlar. II tom. 2-kitob. Nashrga tayyorlovchi G'afur G'ulom. Toshkent: O'zdavnashr.
- Navoiy, Alisher. 1949. *Layli va Majnun*. Tanlangan asarlar. II tom. 3-kitob. Nashrga tayyorlovchi G'ulom Karimov. Toshkent: O'zdavnashr.
- Navoiy, Alisher. 1949. *Saddi Iskandariy*. Tanlangan asarlar. II tom. 5-kitob. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiev. Toshkent: O'zdavnashr.
- Volin, S.L. 1946. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi v Leningradskix sobraniyax, "Alisher Navoi"*. Sbornik statey. Moskva.
- Semenov, A.A. 1940. *Opisanie rukopisey proizvedeniy Navoi, xronyashixsya v gosudarstvennoy biblioteka*. Tashkent: UzGostexizdat.
- Sirojiddinov, Sh. 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- Fitrat. 2000. "*Farhod va Shirin*" dostoni to'g'risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent: Ma'naviyat.
- Fitrat. 1919. *Insoniyat haqida Navoiyning fikri*. Toshkent: Musulmon Ishtirokiy qirqalarning o'lka byurosi huzuridagi nashriyot sho'basi.
- Habibullaev, A. 2000. *Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik*. Toshkent.
- Hayitmetov, A. 1996. "She'rki, ham tushti mening boshima". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati* 9 fevral.
- Shamsiev, P. 1969. *Navoiy asarlari matnlarini o'rganishning ba'zi masalalari: Filologiya fanlari doktori... dis*. Toshkent.
- 8291 اده ببياتی نه مونه له ری / ۱ جیلده، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ن، از بیک
- 8291 اده ببياتی نه مونه له ری / ۱ جیلده، توزگه ن/ فیتره ت، اوزنه شر، تاشکینت/ سه مه رقه ن، از بیک
- Kotibi Muhammad Yusuf binni Berdimurod so'fi, Xiva, 1880. حمسه

“Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya” sining so‘nggi redaksiyasi?¹

Aftondil Erkinov²

Oysara Madaliyeva³

Abstrakt

Maqolada 905/1499 – 1500-yili Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan va hozirgacha Navoiy “Terma devon”i sifatida qaralgan qo‘lyozma tarkibiga ko‘ra, aslida, “Navodir un-nihoya” devoni ekanligi ko‘rsatib berilgan. Mazkur qo‘lyozma “Navodir un-nihoya” devonining Navoiy tomonidan tahrir (redaksiya) qilingan eng oxirgi nusxasi ekanligiga e‘tibor qaratilgan.

Maqolaga ilova qilingan jadvalda mazkur qo‘lyozma devon tarkibidagi she‘rlar matla‘lari, ular baytlarining soni va varag‘i ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *terma devon, “Navodir un-nihoya”, Sultonali Mashhadiy, devon, devon tahriri (redaksiyasi).*

Kirish

905/1499-1500-yili Alisher Navoiy she‘rlaridan tuzilgan devon Sultonali Mashhadiy tomonidan Hirotda ko‘chirildi. Bu Sultonali Mashhadiy tomonidan bitilgan va Navoiy nazoratidan o‘tgan uning so‘nggi devoni edi. Shundan ko‘p o‘tmay, 1501-yili 3-yanvarda Navoiy Hirotda dunyodan ko‘z yumdi. Demak, ayni devon Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan devonlarning eng oxirgilaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Lekin bu devon Navoiyning qaysi de-

¹ Mazkur maqola ilk bor tezis holida “Navoiy va XXI asr” nomli xalqaro konferensiya materiallari to‘plamida nashr etilgan: Erkinov A., Madaliyeva O. 2020. “Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya” sining so‘nggi redaksiyasi? (Mashhadiy qo‘lyozmasi asosida, 905/1499-1500-yil). Navoiy va XXI asr 19-21. Toshkent.

² Erkinov Aftondil Sodirxonovich – filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi.

E-pochta: erkinov@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9284-4443

³ Madaliyeva Oysara Rustamovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-pochta: oysara19@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-0932-9570

Iqtibos uchun: Erkinov, A. S., Madaliyeva, O. 2021. “Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya” sining so‘nggi redaksiyasi? ”. *Oltin bitiglar* 2: 64-115.

voni? Uni Hamid Sulaymonov “Terma devon” deb atagan. Xo‘sh, shunday ekan, unga Navoiyning aynan qaysi she‘rlari kiritilgan? Nega aynan bu devon qo‘lyozmasi, uning tarkibi shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan keyin tayyorlanmoqdam? Shu kabi savollarga javob izlash jarayonida mazkur maqola vujudga keldi. Bunda Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida saqlanayotgan Alisher Navoiy devoni qo‘lyozmasi (tartib raqami – 21) haqida fikr yuritamiz.

“Xazoyin ul-maoniy”dan keyin tuzilgan va undagi she‘rlardan saylab olingan she‘riy to‘plamlar shartli tarzda “Terma devon” nomi bilan atalgan. Hozirgacha Navoiy “Terma devon”i nomi ostida yuzdan ortiq qo‘lyozma mavjud. Ularning tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari, qanday me‘yorlarga asoslanib tuzilganligi ilmiy jihatdan kam o‘rganilgan. Mana shunday sharoitda Navoiy “Terma devon”i va uning boshqa nusxalardan farqi, muhim xususiyati haqida fikr yuritish murakkabdir.

Diqqat qaratayotganimiz qo‘lyozma AQShning Nyu-York shahridagi Metropoliten muzeyida saqlanadi. U ayni muzey qo‘lyozmalari katalogiga kiritilgan va “Navoiy devoni” degan umumiy nom ostida tavsiflangan [Catalogue ... 1914, 160–163]. Hamid Sulaymonov mazkur qo‘lyozmani “Terma devon” nomi ostida keltirgan [Сулейманов 1955-1961, 222–224]. Bizning qo‘limizda faqat katalogdagi ma‘lumot mavjud bo‘lganligi va qo‘lyozmaning o‘zi bilan tanishish imkoniyati mavjud emasligi bois Navoiy devonining bu nusxasi haqiqatan ham terma devonmi? – degan savolni qo‘yib, unga javob berishga qiynalamiz.

Tadqiqotlar ko‘lami

Bugungi kunga qadar Navoiy asarlari, xususan, devonlari qo‘lyozmalariga oid bir qancha tadqiqotlar yaratildi. Lekin ularda ayni biz ko‘rib o‘tayogan qo‘lyozma devon tarkibi va xususiyatlari haqida ma‘lumot berilmagan. H.Sulaymonov devon tarkibidagi janrlar miqdorini ko‘rsatgan. Olimning bu devon qo‘lyozmasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari, hozircha, bizga oz bolsa-da tasavvur berib turibdi. Ayni devon haqida D. Ahmedova “Alisher Navoiy ijodining Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘rganilishi” maqolasida ma‘lumot keltirgan. Bunda tadqiqotchi yuqorida keltirganimiz ingliz tilida nashr etilgan katalogdagi ma‘lumotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan [Ахмедова 2018, 224–2234].

Qayd etganimiz katalogda Navoiyning mazkur devoni quyi-dagi misra bilan boshlanadi:

Zihi zuhuri jamoling quyosh kibi paydo.

Navoiyning “Navodir un-nihoya” va “Navodir ush-shabob” devonlari ham ayni shu g’azal bilan boshlangan. Shu bois uni ikki devondan biri emasmikin, degan mulohaza ham paydo bo’ladi.

Shu bois bu devon va uning tadqiqi, qo’lyozma nusxalariga doir ma’lumotlarni biroz eslab o’tish kerak. Hozirga qadar bizga “Navodir un-nihoya”ning to’rt qo’lyozmasi ma’lum. Ulardan uchta-sini M.Rashidova [Рашидова 2019, 20–21] va Tojikistondagi bir nusxasini B.Maqsudov o’rgangan [Мақсудов 2016, 49–52]. “Navodir un-nihoya” devonining matni va manbushunoslik tahliliga oid bir qancha tadqiqotlar ham amalga oshirilgan [Валихўжаев 1979, 41–43; Имомназаров 2017, 6–8; Yusupova 2017, 54–60]. Lekin ularda biz ko’rib o’tayotgan devonga aloqador fikrlar uchramaydi. Ehtimol, bu mazkur devonga shu paytgacha “Terma devon”lardan biri sifatida qarab kelinganligi bilan bog’liqdir.

Ayni devon tarkibini aniqlash orqaligina mazkur savolga javob topish mumkin. Buning uchun H.Sulaymonov tadqiqoti – dissertatsiyasi so’ngida keltirilgan jadvallar bizga yordam beradi [Сулейманов 1955-1961]. Sababi ayni jadvallarda H.Sulaymonov “Xazoyin ul-maoniy” matnini yaratish uchun xizmat qilgan yigirmata qo’lyozma va ular tarkibidagi o’zi foydalangan she’rlarni birma-bir ko’rsatgan. Ular ichida ayni maqolamizda biz ko’rib o’tayotgan “Terma devon” ham mavjud. Mazkur jadval asosida ushbu devon tarkibini shartli ravishda bo’lsa ham tiklashga urindik. Shartli ekanligi shu bilan izohlanadiki, devon qo’lyozmasining asl nusxasini ko’rmagan holda, H.Sulaymonov ma’lumotlariga tayanib devon tarkibi – jadvalini tuzdik (“Ilova”ga qarang).

Jadvalni tuzish asnosida ba’zi fikrlar ham paydo b’ldi. Ko’rib o’tayotganimiz devon tarkibidagi she’rlarga ko’ra, odatda, “Xazoyin ul-maoniy”dagi she’rlardan tanlab olinib tuziluvchi “Terma devon”dan ko’ra, tarkiban “Navodir un-nihoya” devoniga yaqin (filologiya fanlari nomzodi Nodir Ramazonov ham biz bilan og’zaki suhbatda aynan shu fikrni ilgari surgan edi).

Hamid Sulaymonovning ma’lumotiga ko’ra, ushbu devon 815 (+3) ta g’azal, 3ta mustazod, 4ta tarji’band, 3ta qit’a, 31ta ruboiy va 3ta muammo – jami 860ta she’rdan tarkib topgan [Сулейманов 1961, 1]. Ammo olimning mazkur ma’lumoti, dissertatsiyasi so’ngida berilgan jadval va muzey katalogidagi qaydlar orasida tafovut bor.

Metropolitan san’at muzeyi katalogida devon tarkibidagi she’rlarning janri va soni shunday berilgan: 816ta g’azal, 5ta qasida, tarji’band, 33ta ruboiy va 3ta fard.

H.Sulaymonov dissertatsiyasi jadvali esa quyidagi statistikani

keltirib chiqardi: 818ta g‘azal (3b–234b varaqlar)¹, 3ta mustazod (234b–236a varaqlar), 1 ta muxammas (236a–237a), 4ta tarji‘band (237a–250b), 31ta ruboiy (251a–254a), 3ta qit‘a (250a–251a), 3ta muammo (254a).

Alisher Navoiy o‘zi tartib bergan uch devoniga debocha ham yozganini “Xazoyin ul-maoniy”ning debochasida aytib o‘tgan [Навоий 1959, 8]. Ammo bugunga qadar shoirning ikkinchi devoni – “Navodir un-nihoya”ning debochasi bilan ko‘chirilgan nusxasi topilmagan. Navoiy devonining Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan Metropoliten nusxasida debocha mavjud emas. Bu esa fanda “Navodir un-nihoya”ning debochasi bilan bog‘liq muammolar yechilmaganini anglatadi.

Keyingi yillarda Alisher Navoiy devonlari qo‘lyozmalari nusxalarining xorijiy fondlardan topilishi yoki ularning tadqiq etilishi Navoiy merosining yangi qirralari ochilib borishiga katta umid uyg‘otmoqda [Erkinov 2012, 10-18; Имомназаров 2018, 16–24; Yusupova 2017, 54–60; Мадалиева 2019, 79–86; Джабборов 2019, 26–27]. Biz ko‘rib o‘tganimiz “Navodir un-nihoya” ekanligi ko‘p jihatdan aniq bo‘lgan Amerika qo‘lyozmasi ham chuqur tadqiq etilishi kerak. Hozircha esa shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur qo‘lyozma Hirotda 905/1499-1500-yili ko‘chirib tugallangan. Ayni shu paytda Alisher Navoiy ham Hirotda “Lison ut-tayr” dostonini tugallayotgan edi. Ya’ni, shunda biz “Navodir un-nihoya” devoni deb atayotgan o‘z devoni qo‘lyozmasi bilan Navoiyning tanishgan bo‘lishi ehtimoli juda katta. Shu ma’noda, maqolada ko‘rganimiz “Navodir un-nihoya” devoni qo‘lyozmasi hozirgacha biz bilgan uning to‘rt qo‘lyozmasi yoniga beshinchi nusxa bo‘lib qo‘shiladi. Bundan tashqari, agar u bilan Navoiy tanish bo‘lganligi juda katta ehtimol bo‘lsa, ayni holatda u Navoiy “Navodir un-nihoya” devonining eng ishonchli nusxasi, so‘nggi redaksiyasi bo‘la oladi. Sababi, har bir yaratilgan asar uning ijodkori tomonidan muttasil mukammalashtirilib, ishlab boriladi. Bu asarning ijodkor hayotligida yaratilgan eng oxirgi nusxasi (varianti) eng mukammal deb hisoblanadi. Shu bois mazkur Navoiy “Terma devon”i qo‘lyozma deb atab kelingan nusxani endilikda Alisher Navoiy “Navodir un-nihoya” devonining muallif – Navoiy nazoratidan o‘tgan eng so‘nggi redaksiyasi deb atashga asoslar tug‘ilib bormoqda.

¹Ammo umumiy jadvaldan tadqiqot obyekti bo‘lgan mazkur devon tarkibi bir o‘ringa jamlanganda, faqat 796 ta g‘azalning matlasi mavjudligi ayon bo‘ldi, buni D.Ahmedova ma’lumot berganidek, devonning 108-, 148-, 183-, 226- va 250-varaqlari yo‘qolgani bilan izohlash mumkin.

Alisher Navoiy. Terma devon

№	G'AZALLAR	HAJMI VA O'RNI
1.	Zihi zuhuri jamoling quyosh kebi paydo, Yuzung quyoshig'a zarroti kavn o'lub shaydo.	7 bayt; 3 ^b 1
2.	Ilohiy amringa ma'mur yetti torami a'lo, Ne yetti torami a'lo, to'quz sipehri muallo.	7 bayt; 3 ^b -4 ^a 2
3.	Zihi el nihoni sanga oshkoro, Nihon dardima oshkor et mudoro.	7 bayt; 4 ^a 3
4.	Zihi buroqing izi mehru sayri barqoso, Bu barq sayri bila po'yasi falakfarso.	7 bayt; 4 ^{ab} 4
5.	Bediling xayli rusuli sensen alarg'a dilrabo, Yo nabi, ruhiy fidoka ahlan va sahlan marhabo.	7 bayt; 4 ^b 5
6.	Har jafo qilsang to'zarmen, qilmasang dag'i vafo, O'zgalarga ne vafo qilsang to'zarmen, ne jafo.	7 bayt; 5 ^a 6
7.	Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano Chorakim, qolmadi sabrim g'ami hajringda yano.	8 bayt; 5 ^{ab} 7
8.	Yor javlongahidin keldi sabo, Paykarim tufrog'ini qildi habo.	7 bayt; 5 ^b 8
9.	Sharora xatlari sog'inma dudi ohim aro Ki, yirtibon yuzini kiydi motamimg'a qaro.	7 bayt; 5 ^b -6 ^a 9
10.	Bo'lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo, Ul su ne taraf borsa, ochilgay guli ra'no.	7 bayt; 6 ^a 10
11.	Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo, Gar Layli itining julidin topsa musallo.	7 bayt; 6 ^{ab} 11
12.	Yo rab, o'lg'on chog'da jonim jismi vayrondin judo Ul bo'lub mundin judo, sen bo'lmag'il andin judo,	9 bayt; 6 12
13.	Gul uzra hatti mushkin birla to qilding raqam paydo, Manga jon safhasida bo'ldi yuz xatti alam paydo.	9 bayt; 6 ^b -7 ^a 13
14.	Ko'zumdin ashk tugandiyu bo'ldi qon paydo, Bag'irdin anda bo'lur poralar nishon paydo.	7 bayt; 7 ^{ab} 14
15.	Gulbarg uza qilmishsen to sabzai tar paydo, Kun ko'zgusida go'yo zang etti asar paydo.	7 bayt; 7 ^b 15
16.	Xil'atin aylabmudur ul sho'xi siyminbar qaro, Tun savodi birla kiygandek mahi anvar qaro.	7 bayt; 7 ^b -8 ^a 16
17.	Do'st bo'lmas gar jamol ahliga jon qilsang fido, Dushmani jondur agar jonu jahon qilsang fido.	7 bayt; 8 ^{ab} 18
18.	Erur ishq ahli go'ristoniyu yuz ming mazor anda, Fano shahriyu lavhu mayldin toqu manor anda	9 bayt; 8 ^b 19

19.	Yashil to‘n birla oltun tugmalardin zebu far ando, Qading noranj ra‘no naxlidur butkon samar ando.	9 bayt; 8 ^b –9 ^a 20
20.	O‘tqa solg‘il sarvni ul qaddi mavzun bo‘lmasa, Yelga bergil gulni, ul ruxsori gulgun bo‘lmasa.	7 bayt; 9 ^{ab} 21
21.	Gul kerakmastur menga, majlisda sahbo bo‘lmasa, Naylayin sahboni, bir gul majlisoro bo‘lmasa.	9 bayt; 9 ^b 22
22.	Ey, jamoling jilvasi mir‘ot insu jon aro, Lek o‘lub ul jilva komil mazhari inson aro.	7 bayt; 10 ^a 24
23.	Tushkoli qadding havosi boshima avbosh aro, Bosh aro kestim alif, yovg‘on alifdek bosh aro.	7 bayt; 10 ^{ab} 25
24.	Telba ko‘nglum yorasi hadsiz tani uryon aro, Uyladurkim, yer tutar devonaye vayron aro.	7 bayt; 10 ^b 26
25.	Kirsa ul xirmani ag‘yor ila gulzor aro, Men hamono tolpinurmen xirman etkan xor aro.	9 bayt; 10 ^b –11 ^a 27
26.	Soqiyo, naqdi hayotim javharidur jom aro Kim, erur jom ichra may, aksing mayi gulfom aro.	7 bayt; 11 ^a 28
27.	Demaki, kirdi o‘qi qatl vaqti qonim aro Kim, ul alif kebi kirdi o‘larda jonim aro.	7 bayt; 11 ^b 29
28.	Mir‘oti husnuning tiyradur bu ohi dardolud aro, Ravshanlig‘i mumkin emas, chun sham‘ qoldi dud aro	7 bayt; 11 ^b –12 ^a 30
29.	Jonda qo‘ydum chirmog‘on maktubini hijron aro, Bilmon ul maktubdur, yoki alifdur jon aro.	7 bayt; 12 ^a 31
30.	Savodi xoli aning la‘li ruhparvar aro, Magarki murcha nisfi uzuldi shakkar aro.	7 bayt; 12 ^{ab} 32
31.	Kilk erur jismimki, til bo‘lmish demakdin lol anga, Ichda pechu toblig‘ nalamni angla, nol anga.	7 bayt; 12 ^b 33
32.	Ul pari paykarki, hayron bo‘lmish insu jon anga, Kimki hayroni emas, men telbamen hayron anga.	7 bayt; 12 ^b –13 ^a 34
33.	Ey ko‘ngul, telbarading – emdi ne tadbir sango, Ul pari zulfimi, gar qilmasa zanjir sango.	7 bayt; 13 ^a 35
34.	Bahona qatlimadur ishqdin fasona sanga, Qilurg‘a qatl ne hojatdurur bahona sanga.	7 bayt; 13 ^{ab} 36
35.	Hajridin har nechakim bo‘ldi ko‘ngul zor manga, Hech rahm etmadi ul sho‘xi jafokor manga.	7 bayt; 13 ^b 37
36.	Tifllar toshiki, jismim qildi sartosar aro, Bo‘ldi sardog‘a savodi a‘zam ondin har qaro.	7 bayt; 12 ^b 37
37.	Bukim qolibdur, ul oy hajrida hayot manga, Hayot qolmamish azbaski bor uyot manga.	7 bayt; 13 ^b –14 ^a 38

38.	Chog'irg'a tushkali yo'qtur qaroru xob manga, Chu o'tqa tushtum, emas ayb iztirob manga.	7 bayt; 14 ^a 39
39.	Ul malohat ganji hajrida buzug' maskan manga, Uyladurkim, jondin ayru yuz yaralig' tan manga.	7 bayt; 14 ^{ab} 40
40.	Nechakim kuyar hajr aro jon manga, Emas tarkini qilmoq imkon manga.	7 bayt; 14 ^b 41
41.	Ey ko'ngul, gar kimsa ahvolim demas yor ollida, Xotirim kimdin malul o'lsun, kimim bor ollida?	7 bayt; 14 ^b –15 ^a 42
42.	Er tutqali ul kofiri xudkom ko'ngulda, Yo'q menda ko'ngul, uylaki, orom ko'ngulda.	7 bayt; 15 ^a 43
43.	Sohiredur ul ko'z, ammo xoli hindu ostida Nuqtadur oraz uza, yo'q ersa, jodu ostida.	7 bayt; 15 ^b 44
44.	Budu nobudum agar teng bo'ldi jonon ollida, Zarra yo'qu bori tengdur mehri raxshon ollida.	7 bayt; 15 ^b 45
45.	Davr el sog'arini qildi mayi nob to'la, Juz mening eski safolimniki xunob to'la.	7 bayt; 16 ^a 46
46.	Dahrkim, yor yo'q mango anda, Bor esa dog'i yo'q vafo anda.	7 bayt; 16 ^{ab} 47
47.	Dahr elidin naf' agar yo'qtur, zarar ham bo'lmasa, Marham ar yo'qtur, ko'ngulga nishtar ham bo'lmasa.	7 bayt; 16 ^b 48
48.	Ul oy bu telba bila yormu ekin, oyo, Zamiri ichra g'amim bormu ekin, oyo.	7 bayt; 17 ^{ab} 51
49.	Fig'onki, hajridin o'ldi o'kush alam bizga, Tarahhum etmadi ul mehri yo'q sanam bizga.	7 bayt; 17 ^b –18 ^a 52
50.	Kimsa hargiz ko'rmadi chun ahli davrondin vafo, Ulki davron ofatidur, ne tama' andin vafo.	7 bayt; 18 ^a 53
51.	Dahrdin bog'i aro ko'p istamagil ayshu tarab, Kim guli shula'i g'am g'ungchasidur xori taab.	7 bayt; 18 ^{ab} 54
52.	Qilg'ali may bila gulgul yuzin ul no'shinlab, Lolagun bo'ldi quyosh orazi kavkab–kavkab.	9 bayt; 18 ^b 55
53.	Yor og'iz ochmasqa dardim so'rg'ali toptim sabab, Ko'p chuchukliktin yopushmishlar magar ul ikki lab.	7 bayt; 19 ^a 56
54.	Shahd aro og'ushta gulbargedurur ul ikki lab, Har so'z andinkim chiqar, shirin esa, yo'qtur ajab.	9 bayt; 19 ^{ab} 57
55.	Ishqing ixfosig'a ne yanglig' bo'layin murtakib Kim, bo'lurmen, har kishi otingni tutg'och muztarib.	7 bayt; 19 ^b 58
56.	Ey, firoqingdin manga g'am ro'ziyu mehnat nasib, Ohkim, hajringda o'z shahrimda bo'lmishmen g'arib.	7 bayt; 19 ^b –20 ^a 59

57.	Subhi davlat yuzung, ey tavsani gardun sanga ashhab, Boshing ustidagi dur uylaki, tong boshida kavkab.	9 bayt; 20 ^a 60
58.	Soching qorong’i tun, ey sarvi qaddu shirin lab, Yuzing tun o’rtasida jilva aylagan kavkab.	7 bayt; 20 ^b 61
59.	Bo’lmayin husn ko’ngul topmadi ishq ichra tarab, Anga haqdin talabi ishqdurur husn talab.	7 bayt; 20 ^b –21 ^a 62
60.	Qachon maktabda ul mohi muaddab Borur, o’zdin borurlar ahli maktab.	7 bayt; 21 ^a 63
61.	O’rtasa ishq meni, so’rma sabab: Kuysa xoshok yolindin, ne ajab.	7 bayt; 21 ^{ab} 64
62.	Yor gulgun to’n yenginmu yuzga aylabtur hijob, Yo yoshurmishdur quyosh ruxsorini gulgun sahob.	7 bayt; 21 ^b 65
63.	Topmish ul yuz qatra–qatra xo’ydin o’zga obu tob, Qayda, vah–vah, muncha kavkab zohir aylar oftob.	7 bayt; 21 ^b –22 ^a 66
64.	Ajab yo’q o’lsa qora zulf orazingg’a niqob, Quyoshqa tongmudurur bo’lsa shomi tiyra hijob.	7 bayt; 22 ^a 67
65.	Gulruxi ra’no qadim chun bog’ tavf aylar borib, In’fiolidin gulira’no qizorib, sarg’orib.	7 bayt; 23 ^{ab} 68
66.	Pariydek ulki erur xo’blar aro mahjub, Hijob sizu men uldur bu telbaga matlub.	7 bayt; 22 ^b 69
67.	Og’zining sirri manga ma’lum agar ermas ne ayb, Hech kimga zarrai chun bermamish haq ilmi g’ayb.	7 bayt; 22 ^b –23 ^a 70
68.	Iki ruxsoring erur xo’bu xatting ham marg’ub, Xo’blardin neki bosh ursa, erur beshak xo’b.	8 bayt; 23 ^a 71
69.	Shomi g’am yog’dirdimu ohim shafaqni su qilib? Yo falak qon yig’lar ul oy ollida holim bilib.	7 bayt; 23 ^b 72
70.	Gul chog’i har gulga bir bulbul tarannum ko’rguzub, Toza qonlig’ dog’ ila ko’nglum qushi afg’on tuzub.	7 bayt; 23 ^b 73
71.	Qaysi bir tuhmatki bizga qilmadi nisbat raqib, Qaysi birnikim eshitqach qilmadi bovar habib?	7 bayt; 24 ^a 74
72.	G’ozavu surmag’a chun ko’ngli borib, Gul qizarib, dag’i nargis qorarib.	9 bayt; 24 ^{ab} 75
73.	May quyoshimu ichimda uyoqib, Yo falak mehr o’ti ko’nglumda yoqib.	7 bayt; 24 ^b 76
74.	Chun kular yoni so’kulgan jismi zorimni ko’rub, Yig’lag’aymu yoni yemrulgan mazorimni ko’rub.	7 bayt; 24 ^b 77
75.	Haq o’zin qildi muhib, sen oyni mahbub, ey habib, Ul muhibqa sen kebi mahbub erur xo’b, ey habib.	7 bayt; 25 ^a 78

76.	Tun aqshom keldi kulbam sari gul gulrux shitob aylab, Xiromi sur'atidin gul uza xo'ydin gulob aylab.	9 bayt; 25 ^{ab} 79
77.	Tig' ila xoki tanimni har taraf yording kelib, Naqdi jon olmoqqa bu tufrog'ni axtarding kelib.	7 bayt; 25 ^b 80
78.	Dam-badam jomi tarab g'ayr ila ul moh chekib, Men yiroqtin boqibon, qon yutubu oh chekib.	7 bayt; 26 ^a 81
79.	Chun bag'ir zaxmlari butmadi, payvand qilib, Itlaring ollida tashlay, necha parkand qilib.	7 bayt; 26 ^{ab} 82
80.	Ul pariy ko'nglum qushin sayd etti, zulfin dom etib, Yuzi birla xoli su donasidin rom etib.	7 bayt; 26 ^b 83
81.	O'rtanurmen, ko'ngliga andin asar bo'lg'aymu deb, Bo'lsa ta'sir, anga holimdin xabar bo'lg'aymu deb.	7 bayt; 26b-27 ^a 84
82.	Ne maxlasim bor aning ishqidin kanora qilib, Ne to'ymog'im bor aning husnig'a nazora qilib.	7 bayt; 27 ^a 85
83.	Bordi ko'nglum hushi ishqing o'tidin axgar topib, Bir gado yanglig'ki, o'lgay, qiymati gavhar topib.	7 bayt; 27 ^{ab} 86
84.	Avval ista manzili amnu harifi soda top. Chunki bu ikki muyassar bo'ldi, nuqlu boda top.	7 bayt; 27 ^b -28 ^a 87
85.	Zulfu yuzdin sunbulungni gul uza tarqatma ko'p, Dahr bog'ida gulu sunbul isin butratma ko'p.	9 bayt; 28 ^a 88
86.	Jahon arusi birla suhbat aylama rag'bat, Nedinki, rag'bat ila tutmas el bila suhbat.	7 bayt; 28 ^b 89
87.	Tiyravu afsurdabiz, ey ishq tarqatqan bulut, Bir balo barqi bila ham o'rta bizni, ham yorut.	7 bayt; 28 ^b 90
88.	Qaydi zulfini, chu, yor ayladi zanjiri irodat, Tushti har halqasidin bo'ynuma bir tavqi saodat.	7 bayt; 29 ^a 91
89.	Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at, To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat.	7 bayt; 29 ^{ab} 92
90.	La'l emas shirin labingkim, jon topar andin hayot Kim, so'rub bildim ul ermish la'lgun qilg'an nabot.	7 bayt; 29 ^b 93
91.	Boshim chu gardu ko'zum ko'r sensiz o'lmadi bot, Qoshingda bosh ko'tarib, ko'z ocharg'a qo'ymas uyot.	7 bayt; 29 ^b -30 ^a 94
92.	Za'f, ko'rgilkim, tanimni eltibon aylarga qut, Mo'r sudrar, tori birla rust bog'lab ankabut.	7 bayt; 90 ^a 95
93.	Tutti ko'k feruzagun jomini shingarfi bulut, Soqiyo, nilufari jom ichra gulgun boda tut.	7 bayt; 30 ^{ab} 96
94.	Ohkim, oldi qarig'an chog'da ko'nglum bir yigit Kim, agar jon bersam, istig'nodin o'lmas multafit.	7 bayt; 30 ^b 97

95.	Bodayi ishqing ko‘rub topti buzug‘ ko‘nglum shikast, Sayl yetmasdin burun vayronim o‘ldi yerga past.	7 bayt; 30 ^b –31 ^a 98
96.	Jon farax topti, labing javhari bo‘lg‘och anga qut, Olloh-olloh, ne mufarrih bo‘lur ermish yoqut.	7 bayt; 31 ^a 99
97.	Taning‘a berdi jon ul naxli qomat, Dema qomat ani, degil qiyomat.	7 bayt; 31 ^{ab} 100
98.	G‘aming qattig‘lig‘in qilsam hikoyat, Eshitsa tosh anga aylar siroyat.	7 bayt; 31 ^b 101
99.	Chun qo‘yub ketkung jahon mulkin musaxxar bo‘ldi, tut, Chun yotib o‘lgung falak taxti muyassar bo‘ldi, tut.	9 bayt; 31 ^b –32 ^a 102
100.	Bir maqomi amn top, anda burun orom tut, So‘ngra tuz bazmu diloromingg‘a har dam jom tut.	7 bayt; 32 ^{ab} 103
101.	Vahki, la‘ling qildi bag‘rim taxba-tax qon oqibat, Qatra-qatra ko‘zdin ul qon bo‘ldi g‘alton oqibat.	7 bayt; 32 ^b 104
102.	G‘am yukidin changdek qaddim xam etting oqibat, Rishtai jon nolasin zeru bam etting oqibat.	7 bayt; 32 ^b –33 ^a 105
103.	Gulga farxunda jamolingdin uyat, Sarvg‘a toza niholingdin uyat.	7 bayt; 33 ^a 106
104.	Habib g‘ayr ila may ichti, ey ko‘ngul, qon yut, El ichsa vasl mayin, boqu zahri hijron yut.	7 bayt; 33 ^{ab} 107
105.	Ey ko‘ngul, dedimki, aylab azm jononimg‘a yet, Demadimkim, turg‘ilu afg‘on bila jonimg‘a yet.	7 bayt; 33 ^b 108
106.	Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt, Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.	9 bayt; 33 ^b –34 ^a 109
107.	Ey nasimi subh, ahvolim diloroming‘a ayt. Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg‘a ayt.	7 bayt; 34 ^a 110
108.	Etilmish Olloh–Olloh, ne qomat ul qomat, Ki olam ahlig‘a soldi qiyomat ul qomat.	7 bayt; 34 ^b 111
109.	Yana soldi hajr ham, tan ham, ko‘ngul ham jong‘a o‘t, Soldi o‘t hijron manga, yo rabki, sol hijrong‘a o‘t.	9 bayt; 34 ^b –35 ^a 112
110.	Yigitligingda qarilarg‘a qilmading xidmat, Qarilig‘ingda yigitlarga bermagil zahmat.	9 bayt; 35 ^a 113
111.	Tanimni qilsa g‘amzang yuz jarohat, Yetar har zahming jonimg‘a rohat.	7 bayt; 35 ^b 114
112.	Ko‘nglum oldi bir pari paykar malaksiymo yigit Kim, bani odamda andoq bo‘lmamish paydo yigit.	9 bayt; 35 ^b –36 ^a 115

113.	Xirmaning ruxsorig'a solmish mayi gulnori o't, Uylakim, gul xirmanig'a otashin ruxsori o't.	7 bayt; 36 ^a 116
114.	Lolazor ermaski, ohimdin jahong'a tushti o't, Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmong'a tushti o't.	7 bayt; 36 ^{ab} 117
115.	Ishq soldi xonumonim ichra o't, La'li otashnoki jonim ichra o't.	7 bayt; 36 ^b 118
116.	Zamona erur chun mahalliy havodis, Zamone kerak bo'lmasang anda monis.	7 bayt; 36 ^b -37 ^a 119
117.	Falak havodisidin bo'lsa har balo hodis, Ul oy vasilasidindir burun manga hodis.	7 bayt; 37 ^a 120
118.	Ko'ngulda zulm bila qilma yuz bino ihdos, Chu qilding, ushbu yetar, qilmag'il yana ihdos.	7 bayt; 37 ^{ab} 121
119.	Mening majnunlug'umg'a ishqu savdo gar erur bois, Valekin bu ikiga bir pari paykar erur bois.	9 bayt; 37 ^b 122
120.	Va'dai vaslidin etsa ul so'zi shirin hadis, Garchi yolg'on aytur, ani sog'inurmen chin hadis.	7 bayt; 38 ^a 123
121.	Zihi boshing uza va shams zavaridin toj, Soching savodida tafsiri laylatul me'roj.	7 bayt; 38 ^{ab} 124
122.	Ey gadoying ollida muhtoj ahli taxtu toj, Ahli toj ollida andoqkim gadog'a ehtiyoj.	7 bayt; 38 ^b 125
123.	Charx izing gardig'a qildi kavkabi sayyor xarj, Javhar olmoqg'a g'aniy qilg'on kebi diynor xarj.	7 bayt; 38 ^b -39 ^a 126
124.	Mayi la'ling erur jon birla mamzuj, Yo'q ersa obihayvon birla mamzuj.	7 bayt; 39 ^a 127
125.	Ko'nglumga ayla la'li shakarxand ila iloj, Kilg'an kebi zaifqa gulqand ila iloj.	7 bayt; 39 ^{ab} 128
126.	Girih-girih chu tugarsen yetar oyog'inga soch, Girihlarin chu ocharsen tushar quloq-quloq.	7 bayt; 39 ^b 129
127.	Qo'ydi yuz shomi ajal zulfin parishon aylagach, Umr xurshidi uyoqti chehra, pinhon aylagach.	7 bayt; 39 ^b -40 ^a 130
128.	Etishsa ishq aro yuz mehnatu balo qadah ich, Nafas-nafas quyubon may to'la-to'la qadah ich.	7 bayt; 40 ^a 131
129.	Ko'rub dardim tarahhum qilmading hech, To'kub ashkim tabassum qilmading hech.	7 bayt; 40 ^{ab} 132
130.	Bu chamankim, to'kilur shom gul, ochilsa saboh, Bodasiz shomu sabo o'lmoq emas bizga saloh.	7 bayt; 40 ^b 133
131.	Subh dayr ichra mug'anniy uyla tuzdi shaddi ruh Kim, unidin bo'ldi ruhullohga ohangi sabuh.	9 bayt; 40 ^b -41 ^a 134

132.	Jonima yetkurdi ul la’li ravonoso farah, Elga yetkurgan masallik la’lgun sahbo farah.	7 bayt; 41 ^{ab} 135
133.	Bo’lsa bo’lg’ay sarv qadlar ichra har gulro’ malih, Sarvi gulro’yum mening lekin erur asru malih.	7 bayt; 41 ^b 136
134.	Fano tariqida har kimki hosil etti rusux, Riyovu zuhd aning ollida erur mansux.	7 bayt; 41 ^b –42 ^a 137
135.	Firoq o’tiki, balo og’zidur anga manfax, Misoli do’zaxu jannatdurur ul do’zax.	7 bayt; 42 ^a 138
136.	Xating sipohi chu chiqti nechukki mo’ru malax, Demaki, qochmasun arbobi ishqu urma zanax.	7 bayt; 42 ^{ab} 139
137.	Xujasta tongki ochib oraz ul buti gulrux, Bahor husni kebi subhim aylagay farrux.	7 bayt; 42 ^b 140
138.	Sadqang bo’lubon urmoq bu gunbadi axzar charx, Qasringg’a davr urg’ondek bir sabz kabutar charx.	7 bayt; 42 ^b –43 ^a 141
139.	Meni havosida devona ayladi ul sho’x, Jununu ishq ila afsona ayladi ul sho’x.	7 bayt; 43 ^a 142
140.	Sochingki yur chog’ida bordi har taraf bir shox, Suv ichra sumbulitardur anga mukarrar shox.	7 bayt; 43 ^{ab} 143
141.	Chu solik aylar esa azm vodiya tavhid, Kerakki, minsa bu sayr ichra markabi tajrid.	7 bayt; 43 ^b 144
142.	Sitam ermas edikim, aylading ko’nglumni yuz parkand, Sitam budurki, tikmak birla istarsen anga payvand.	9 bayt; 43 ^b –44 ^a 145
143.	Qayda qilgay soyadek men telbai xokini band, Kim quyosh bo’ynig’a solmish sunbulung mushkin kamand.	7 bayt; 44 ^{ab} 146
144.	Bo’ldi ko’nglum shod topqach tig’idin ko’ksum kushod, Yo’q ajab har kimga kim yetgach kushodi bo’lsa shod.	7 bayt; 44 ^b –45 ^a 148
145.	Dudi oh ermas ko’ngul uyin qora qilg’anda dard Chun yiqildi ishq zulmidin havog’a chiqti gard.	7 bayt; 45 ^a 149
146.	Buki har yondin ko’kartibdur yuzumni kochi dard, Jism uyi toqini oltun birla qildim lojuvard.	7 bayt; 45 ^{ab} 150
147.	Yo’q manga yuz yilda ul mahvashqa bir so’z derga had, Bo’lsa bir so’z derga had, ul ham bo’lur yuz qatla rad.	9 bayt; 45 ^b 151
148.	Nolonmen ochar bo’lsa yuz ul huri parizod, Bulbulg’a ne tong gul ochilur faslda faryod.	7 bayt; 45 ^b –46 ^a 152

149.	Chekar un ko'nglum ursang tiyg'i bedod, Ne tong, su qo'yg'ach etmak shu'la faryod.	7 bayt; 46 ^a 153
150.	Ko'ngul haroratin anglatdi ohi dard olud, Uy ichra o't ekanin elga zohir ayladi dud.	7 bayt; 46 ^b 154
151.	O'yla hijron toshlarin yog'durdi charxi tezgard, Kim sipehr avjig'acha xoki tanimdin chiqti gard.	7 bayt; 46 ^b 155
152.	Unutmag'ilki to hajr etti bedod, Meni bir noma birla qilmading yod.	7 bayt; 47 ^b -48 ^a 159
153.	Vahki, har soat bo'lurmen vaslidin yetkach navid, Yordin ummidvor, ammo o'zumdin noumid.	7 bayt; 48 ^b 162
154.	Ish manga qilmoqdurur ul sho'xi beparvoni yod, Ul unutmish anikim, qilg'ay meni shaydoni yod.	9 bayt; 49 ^a 164
155.	Ey, soching zanjirining savdosida majnun xirad, Dam badam ko'prak pariydek husnungga maftun xirad.	7 bayt; 50 ^a 167
156.	Qazo ne hukmki aylar jahongadur nofiz, Jahonu bas demakim, insu jong'adur nofiz.	7 bayt; 50 ^{ab} 168
157.	Qo'nglum erur ul g'unchayi serob ila multaz, Ul nav'ki mast o'lsa mayi nob ila multaz.	7 bayt; 50 ^b 169
158.	Zihe mazohir aro mehri orazingdin nur, Quyoshtin uylaki zarrot xayli ichra zuhur.	9 bayt; 50 ^b -51 ^a 170
159.	Sarig' kog'azmudurkim so'zi hajrim ayladim tahrir Va yoxud shu'la tushti safhag'a ul so'z etib ta'sir.	9 bayt; 51 ^{ab} 171
160.	Erur hamisha xazon bargidek boshimda sharor, Senga ne g'amki, boshing uzradur hamishabahor.	7 bayt; 52 ^a 173
161.	Ham ko'zum tortar, hamul mezon bila ko'nglum solur, Yo rab, ul kelgaymukim ko'z yorutub ko'nglum olur.	7 bayt; 52 ^{ab} 174
162.	Tiyra shomim ichrakim barqi balolar chaqilur, Har nafas ishq ajdahosi og'zidin o't sochilur.	9 bayt; 52 ^b 175
163.	Kechakim zulfung xayoli ko'nglum ichra aylanur, Tongg'a tegru za'fliq jismim yilondek to'lg'anur.	7 bayt; 52 ^b -53 ^a 176
164.	To buzug' ko'nglum aro zulfung xayoli aylanur, Ajdahoyedurki, bir vayrona ichra to'lg'anur.	7 bayt; 53 ^{ab} 178
165.	Vaslidin chun multafit ko'proq bo'lur furqatda yor, Tarki vasl aylab qiling, ahbob, furqat ixtiyor,	7 bayt; 53 ^b 179
166.	Firoq isitmasi andoq tanimdin o't chiqarur Ki, gar tabib iligim tutsa, barmog'i qabarur.	7 bayt; 53 ^b -54 ^a 180

167.	Ko‘ngul uyida yuzung naqshin aylaman tasvir Ki, dudi ohim ila rangi topmag‘ay tag‘yir	7 bayt; 54 ^a 181
168.	Etti jon og‘zimakim chiqmas uyidin ul hur, Chiqmag‘an jong‘a umid, ushbu masaldur mashhur.	7 bayt; 54 ^b 182
169.	Junun salosilida bo‘ldi jismi zor haqir, So‘ngak xilolki bo‘ynig‘a taqdilar zanjir.	7 bayt; 54 ^b 183
170.	Chun meni majnun boshin atfol toshi sindurur, Oh o‘ti jo‘lida sochimdin anga kiz kundurur.	7 bayt; 55 ^a 184
171.	Muztarib ko‘nglum aro ul yuz xayoli aylanur, Mavjluq suda quyosh aksi nachukkim chayqanur.	9 bayt; 55 ^{ab} 185
172.	May labingg‘a yetsa, jonimg‘a harorat yetkurur, O‘t agar Iso dami birla yorurkim, kuydurur.	9 bayt; 55 ^b 186
173.	Qaysi to‘biy jilvasi sarvi xiromoningcha bor? Qaysi kavsarning zuloli obi hayvoningcha bor?	9 bayt; 55 ^b –56 ^a 187
174.	Dilbaro, sendin bu g‘amkim menda bordur, kimda bor, Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor.	6 bayt; 58 ^b 189
175.	Kimki aning bir malaksiymo pariyvash yori bor, Odamin bo‘lsa, pariy birla malakdin ori bor.	7 bayt; 56 ^b –57 ^a 190
176.	Xolu xating xayolidin, ey sarvi gul‘uzor, Gohe ko‘zumga xol tushuptur, gahe g‘ubor.	7 bayt; 57 ^a 191
177.	Kofirekim, sen kebi ruxsori otashnoki bor, O‘t solurdin lashkari islom aro ne boki bor.	7 bayt; 57 ^{ab} 192
178.	Ichkali gulrang may nargis masallik jomi bor, Savsani to‘n birla ulkim sarvdek andomi bor	7 bayt; 57 ^b 193
179.	Har gadoekim, jahonda bir muvofiq yori bor, Xizr umriyu Skandar hashmatidin ori bor.	7 bayt; 57 ^b –58 ^a 194
180.	Har kishikim, bir so‘z ul badmehrdin taqriri bor, Holatimning tokim ul taqrir etar tag‘yiri bor.	7 bayt; 58 ^a 195
181.	Xasta ko‘nglumningki, zulfung shomida oromi bor, Bo‘lsa beorom tong ermaski, muhlik shomi bor.	7 bayt; 58 ^{ab} 196
182.	Kufrdin zunnorlar gar turrasi tobinda bor, Kirpigidin dag‘i saflar qoshi mehrobinda bor.	7 bayt; 58 ^b –59 ^a 198
183.	Oshkoro yuz tugan garchi tani zorimda bor, Oncha yuz dog‘i nihoniy joni bemorimda bor.	7 bayt; 59 ^a 199
184.	Ey ko‘ngul, dushmanlar oncha makr ila fan qildilar Kim, vafolig‘ do‘stni jonimg‘a dushman qildilar.	7 bayt; 59 ^b 200

185.	Ko'ksumni chunki qildi labing hajri yaralar, Har yara qon kebi oqizur la'lporalar.	7 bayt; 59 ^b –60 ^a 201
186.	Gul yuzung hajrida chiqsa o'tlug' ohim gohlar, Ko'kta gulnorin bulutlardek kezar ul ohlar.	7 bayt; 60 ^a 202
187.	Ikki zulfung telba ko'nglumba qorong'u kechalar, Za'fdin bexudlug'um uyqu anga bu kechalar.	7 bayt; 60 ^{ab} 203
188.	Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar, Baski, yog'di ustiga atfol elidin xoralar.	7 bayt; 60 ^b 204
189.	Menu furqat ayyomiyu zorlig'lar, Har aqshom tong otquncha bedorlig'lar.	7 bayt; 60 ^b –61 ^a 205
190.	Menu g'ariblig'u hajru benavolig'lar, Diyoru yor firoqig'a muhtalolig'lar.	7 bayt; 61 ^a 206
191.	Osilmamish qulog'ingdin yuz uzra gavharlar Ki, ayrilibtur ul o't shu'lasidin axgarlar.	7 bayt; 61 ^{ab} 207
192.	Boshimg'a kuyida har dam g'ulu qilur itlar, Gar o'lmasam, bu g'uluni nag'u qilur itlar.	7 bayt; 61 ^b 208
193.	La'li shavqidin ko'zu ko'nglumda ashku ohdur, Yo zuloli Xizr ila anfosi ruhullohdur.	7 bayt; 61 ^b –62 ^a 209
194.	Zulfung ustida gajak qulloblar taqlididur, Yo'qsa, kilki sun'din ul turraning tashdididur.	7 bayt; 62 ^a 210
195.	Tovushkim uy toshidin kelsa, dermen bag'ri toshimdur, Eshikdin soya kirgach, sog'inurmenkim quyoshimdur.	9 bayt; 62 ^{ab} 211
196.	Qatlima tig' o'lg'alikim charx ishi ozordur, Mavji ashkim aksidin po'lodi javhardordur.	7 bayt; 62 ^b –63 ^a 212
197.	Ne tong, agar o'qi vayron ko'ngulga rog'ibdur: Qurug' nihol buzug' bog' aro munosibdur.	7 bayt; 63 ^a 213
198.	Qasrning har kunguri uzra balo toshimudur? Yo'qsa botil ishq da'vo qilg'an el boshimudur?	7 bayt; 63 ^{ab} 214
199.	Ko'zi ul yuz o'tidin xalq ichini dog' etadur, Yoxud iki qoshining yolarini chog' etadur.	7 bayt; 63 ^b 215
200.	Shu'lai ruxsorig'a ko'nglum qushi aylonadur, Tong emas, gul sham'ig'a bulbul agar parvonadur.	9 bayt; 63 ^b –64 ^a 216
201.	Suda yuzungmu aksi yo chashma aro pariymudur? Chashmayi mehr ichinda yo lam'ayi mushtariymudur?	7 bayt; 64 ^a 217

202.	To dayr ichinda mug‘bachalardin nishonadur, Ey piri dayr, boshimu bu ostonadur.	10 bayt; 64 ^b –65 ^a 219
203.	Ikki gul vaqtiduru ikki quyosh davronidur Kim, ko‘ngulda ul iki oraz g‘ami hijronidur.	7 bayt; 65 ^a 220
204.	Lo‘livashimdin ayruki, qabrimda loladur, Ul o‘ynag‘on kebi yog‘och uzra piyoladur.	7 bayt; 65 ^{ab} 221
205.	Sarv uza gul butmasa, qad uzra ruxsori nedur? Jon agar shirin emas — la‘li shakar bori nedur?	7 bayt; 65 ^b 222
206.	Gulni naylay, xotir ul ruxsori gulgun saridur, Qo‘y gulafshonni, ko‘ngul bog‘i humoyun saridur.	7 bayt; 65 ^a –66 ^b 233
207.	Yana sensizin munisim g‘am bo‘luptur, Ko‘zumga yurak qoni hamdam bo‘luptur.	7 bayt; 66 ^a 224
208.	To turrasi torinda har sari tugunlardur, Za‘f ichra so‘ngaklardin har sari bo‘g‘unlardur.	7 bayt; 66 ^{ab} 225
209.	Ko‘z qonidin dema, etagim lolavordur Kim, ko‘hi dardning etagi lolazordur.	6 bayt; 66 ^b 226
210.	Harorat jonima ul otashin la‘li axgarindindur, Anga taskin ham ul yuz ravzasining kavsarindindur.	7 bayt; 66 ^b –67 ^a 227
211.	Ikki ko‘zumki dardu balo jo‘yboridur, Ohim buxoriy ustida abri bahoriydur.	7 bayt; 77 ^a 228
212.	Kulbamg‘a, baski, gardun g‘am toshi yog‘durubtur, Sabrim uyidek ul ham yemrulgali turubtur.	6 bayt; 67 ^{ab} 229
213.	Go‘yiyo ko‘nglum taxayyul mulkining sultonidur Kim, xayol ichra qilur har ayshkim imkonidur.	7 bayt; 68 ^a 231
214.	Quyosh yuzinda xating sabzasig‘a maskandur, Bu vajhdindur agar rangi sabz ravshandur.	7 bayt; 68 ^a 232
215.	Qilg‘ali azmi safar ulkim manga dilxohdur, Ogah o‘z holimdin ermasmen, xudo ogohdur?	7 bayt; 68 ^b 233
216.	Shikanji turrasidinkim girih yozilmaydur, Binafshaedurur, ammo hanuz ochilmaydur.	7 bayt; 68 ^b – 69 ^a 234
217.	Birov g‘ami yana ko‘nglumga qo‘zg‘olon soladur, Birov demayki, bu oshubni falon soladur.	7 bayt; 69 ^a 235
218.	Sham’ ul oy hajrida tun kuymagim ogohidur, Dudi ermaskim mening holimg‘a o‘tluq ohidur.	7 bayt; 69 ^{ab} 236
219.	Ko‘ngul hadiqasida bir niholi navrasdur Kim, ushbu bog‘da jinsi shajardin ul basdur.	7 bayt; 69 ^b 237
220.	Men kebi parvona ishq o‘tida beoromdur, Kim, ani ham o‘rtagan bir sarvi siym andomdur.	7 bayt; 70 ^a 239

221.	Parivashe, dedilar, pardai hijobdadur, Ko'rarga telba ko'ngul ani iztirobdadur.	9 bayt; 70 ^{ab} 240
222.	Qarida garchi sabuk ruhlug' farovondur, Vale yigitlar aro chun kirar, garonjondur.	9 bayt; 70 ^b –71 ^a 241
223.	Sarv uza gul ochtikim, qad uzra ruxsorim budur, Jong'a nutq o'rgatdikim, la'l ichra guftorim budur	7 bayt; 71 ^a 242
224.	Ul o'tlug' chehrag'a zarbaft xil'at ne yarashibdur, Magar xil'atqa ul yuz lam'asidin o't tutashibdur.	7 bayt; 71 ^{ab} 243
225.	Lojuvardiy qoshing uzra zarvaraq tobonmudur? Yo magar ko'k toqi uzra anjumi raxshonmudur?	7 bayt; 71 ^b 244
226.	Ul quyoshtin ayru o'rtangan ichimda qayg'udur, Ko'ngul ichra su kebi qon ko'z aro qondek sudur.	7 bayt; 72 ^a 245
227.	Dud yanglig' dema, ko'nglum ohi dardoludidur Kim, ko'ngul uzra tugan qo'yg'an fatilam dudidur.	7 bayt; 72 ^a 246
228.	Netib tuz etay qadkim, jismimda shikanlardur, Naylab tuz uray damkim, bag'rimda tikanlardur.	7 bayt; 72 ^b 247
229.	Yuzungdek qamar yo'qtur, qadingdek shajar yo'qtur, Shajar bo'lsa ham anda, labingdek samar yo'qtur.	7 bayt; 72 ^b –73 ^a 248
230.	Ko'zung sarfitnayi olam tushuptur, Qoshingdek bir yangi oy kam tushuptur.	7 bayt; 73 ^a 249
231.	Yana hamdamim shulayi g'am bo'luptur, G'amim shu'lasi jong'a hamdam bo'luptur.	6 bayt; 73 ^{ab} 250
232.	O'tlug' yuzidin ul oykim burqain oliptur, Kofirlig'in ko'runkim, mus'hafqa o't soliptur.	7 bayt; 73 ^b 251
233.	Furqat ichra sharbati la'ling visoli kam bo'lur, Garchi derlar: talx daryoda chuchuk su ham bo'lur.	7 bayt; 73 ^b –74 ^a 252
234.	Har gahki qadahno'shum mayli mayi nob aylar, Mujgon o'qig'a shishlab bag'rimni kabob aylar.	7 bayt; 74 ^{ab} 253
235.	Jong'a yo'q ko'nglumdinu ko'nglumga yo'q jondin xabar, Menga ne o'zdin xabar, ne ko'nglum olg'andin xabar.	7 bayt; 74 ^b 254
236.	Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar, So'ngra degil ko'ngul otlig' notavonimdin xabar.	7 bayt; 74 ^b –75 ^a 255
237.	Qosidekim yetkurur ko'nglumga jonondin xabar, Uyladurkim bergay o'lgan jismg'a jondin xabar.	7 bayt; 75 ^a 256
238.	Quydi ko'ngulki, qolmadi ashkda qonidin asar, Qon demayinki, ko'zda ham ashki ravonidin asar.	7 bayt; 75 ^b 257

239.	Ko‘zda su – ko‘ngul aro o‘t, ne ko‘rarsen, oxir?! Yana ahvolin alarning ne so‘rarsen oxir?!	7 bayt; 75 ^b 258
240.	Yori birla boda ichkan no‘shi jondurkim, ichar, Yorsiz no‘sh ichsa rangin boda qondurkim, ichar.	7 bayt; 76 ^a 259
241.	Chiqmasa jonon g‘amu anduhdin, jonim chiqar, Zavqdin ul dam kirar jonimki, jononim chiqar.	7 bayt; 76 ^{ab} 260
242.	Toza sarve bog‘ aro, derlarki, noz og‘oz etar, Har dam ani ko‘rgali ko‘nglum qushi parvoz etar.	9 bayt; 76 ^b 261
243.	Hajr aro qolmishmen, soqiy, labolab jom ber, Dam–badam shu‘lamg‘a su quymoq bila orom ber.	7 bayt; 76a–77 ^b 262
244.	Bizga jahon bog‘idin ul sarvi gulandom yetar, Ul chu yetar soyayi sarvu mayi gulfom yetar.	7 bayt; 77 ^a 263
245.	Zulfung ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar, Hindu bachae sho‘xdurur, su bila o‘ynar.	7 bayt; 77 ^{ab} 264
246.	Hush chun may bazmi ichra dilsitonimdin ketar, Tob jismimdin, hayot ozurda jonimdin ketar.	7 bayt; 77 ^b 265
247.	Tilab yuzungni ko‘ngul hajrdin farog‘ istar, Qorong‘u tunda nachukkim kishi charog‘ istar.	7 bayt; 77b–78 ^a 266
248.	Bog‘ atri chu nasimi gulu shamshod berur, Yorning gul yuzu shamshod qadin yod berur.	7 bayt; 78 ^a 267
249.	Qayu tarafki quyosh yanglig‘ ul nigor borur, So‘ngincha soya masallik bu xoksor borur.	7 bayt; 78 ^b 268
250.	Ohim g‘amingda gunbadi axzarni kuydurur, Har uchquni falakda bir axtarni kuydurur.	7 bayt; 79 ^a 270
251.	Ko‘nglum o‘tin zohir etsam, barcha olam o‘rtanur, Shu‘lasin gar tortsam, to‘qquz falak ham o‘rtanur.	7 bayt; 79 ^{ab} 271
252.	Ko‘ngluma hajringda jannat gulshani zindon erur, Ko‘zuma sensiz gulafshon bog‘ xorafshon erur.	9 bayt; 79 ^b 272
253.	Kecha har kavkab ko‘rungach, yodima oyim kelur, Oy chu tole‘ bo‘ldi — mehri olamoroyim kelur.	9 bayt; 79 ^b –80 ^a 273
254.	Nazarga qaysi tarafdinki bir g‘ubor kelur, Ko‘zum yorur bu tamanno bilaki, yor kelur.	7 bayt; 80 ^a 274
255.	To‘rt rangi muxtalifdin hullakim, jonon kiyar To‘rt unsur kisvatidur go‘yiyokim jon kiyar.	7 bayt; 80 ^{ab} 275
614.	Orzu tuxmig'a bar hirmon ekanni bilmadim, Vasl naxlig'a samar hijron ekanni bilmadim.	7 bayt; 183 ^{ab} 634
615.	Ne uchun tarki muhabbat qildi mohim – bilmadim, Bu g'azabkim, ayladi mohim, gunohim – bilmadim.	7 bayt; 183 ^b 635
616.	Subh chun borg'ung, kelib kulbamg'a pinhon kechqurun, Hajr o'qin jonimg'a sen otma tong otmasdin burun.	7 bayt; 184 ^a 636
617.	Ishq chun berdi tanim shu'lasig'a ko'kta o'run, Chekti bir–birdin ani, ayirib uchqun-uchqun.	9 bayt; 184 ^{ab} 637
618.	Garchi to'kti qon ko'zum sensiz hamon ko'nglum hamon, Ne ko'nguldin bir zamon chiqting, ne ko'zdin bir zamon.	7 bayt; 184 ^b 638
619.	Bog'ladim afg'ong'a bel naydek, seni ko'rgan zamon., Za'fdin qilding meni oxir beli bog'liq somon.	7 bayt; 184 ^b –185 ^a 639
620.	Rishtai jonim sanga bog'ligdur, o'ltur bir zamon Kim, erur qo'pmoq hamonu rishtani uzmaq hamon.	7 bayt; 185 ^a 640
621.	La'li shavqindaki bog'landi ko'zum ustida qon, Angadur suqbai pinhon, mungadur dog'i nihon.	7 bayt; 185 ^{ab} 641
622.	Mahvashekim chehra davrinda qiron etmish ayon, Davarning mahvashlarida uldurur sohibqiron.	7 bayt; 186 ^b 642
623.	Ul koni malohatda demon bor edi bir on, Lav tanzur fi husnihi–l–on kamo kon.	7 bayt; 186 ^a 643
624.	Qomatingdek bog'i husn ichra yo'q sarvi ravon, Orazingdek xud qoni sarf uzra arg'uvon.	7 bayt; 186 ^b 644
625.	G'unchai xandon uza xolingmudur, ey mahjabin, Yo magar shahd istay ul gulbarg uza qo'nmish chibin.	7 bayt; 186 ^b 645
626.	Ey, yuzung ustida ko'z andoqki, oraz uzra ayn, Nun bila ikki qoshing ichra tafovut binu bayn.	7 bayt; 186 ^b –187 ^a 646
627.	Ko'yi tufrog'ig'a dafn aylang tanim qilmay kafan, Tokim ul tufrog' birla topsun omizish bu tan.	7 bayt; 187 ^b 647
628.	Ishq aro kuysam, kulumni lutf etib yo zulminan, Xayli mo'ri qilkim, ul ko'y ichra qilg'aylar vatan.	7 bayt; 187 ^{ab} 648

629.	Qurug’ jismim o’tundekdur balo dashtida qaqshalg’an, Anga o’tkanda hijron korvoni ahli o’t solg’an.	7 bayt; 187 ^b 649
630.	Musavvireki, qilur ko’yi gardining raqamin, Qo’yungki, ko’zga chekay surma milidek qalamini.	7 bayt; 187 ^b –188 ^a 650
631.	Qilmag’ay gardun quyoshqa mujtami’ har kavkabin, Ko’rsa ul oy orazi davrida tavqi g’abg’abin.	7 bayt; 188 ^a 651
632.	Netib tama’ qilayin bo’ynuma soching rasanin Kim, ul quyosh yuziga soldi chin ila shikanin.	7 bayt; 188 ^{ab} 652
633.	Donai xoling terarga qo’yma ko’nglum bulbulin — Kim tilarkim o’psa bu tazvir ila husnung gulin.	7 bayt; 188 ^b 653
634.	Vah, necha tortay ul oy dardu g’amin, Yo g’amu dardi yo’q elning sitamin.	7 bayt; 189 ^a 654
635.	Gul emaskim qon etib aflok baxtim axtarin, Qildi tig’i zulm ila yuz pora aning paykarin.	7 bayt; 189 ^{ab} 655
636.	G’amingda buzdi ko’ngul xonumonini hijron, Tarahhum aylamading xonumoning obodon.	7 bayt; 189 ^b 656
637.	Yo’q furqat aro bahram ne tandinu ne jondin, Billahki, to’yubturmen ham mundinu, ham ondin.	7 bayt; 189 ^b –190 ^a 657
638.	Ko’zumga hajrda birdek qorong’udur tunu kun, Manga firoq tuni xoh qisqa, xoh uzun.	7 bayt; 190 ^a 658
639.	Qani ulkim, ko’zum ko’rgay jamoli olamoroyin, Qo’zumni surtmak qilsam havas, sung’ay kafi poyin.	7 bayt; 190 ^{ab} 659
640.	Muzahhab aylagan paykonlaring jismim aro har yon, Dema bosh chektikim, chekti zabona shu’lai hijron.	9 bayt; 190 ^b 660
641.	La’li oq uy ug’lari qonlig’ mujam bo’lmish yaqin, Anda mardumlug qilib kir, ey mahi xirgahnishin.	7 bayt; 191 ^a 661
642.	Qizil yoxud qora yo ko’k to’nung har bir erur mavzun, Nechukkim oy libosi ham shafaq, ham kecha, ham gardun.	9 bayt; 191 ^{ab} 662
643.	Furqatingdin sudurur ko’nglum, xayoling ul sudin Uyla zohirdurki, zohirdur jamoling ko’zgudin.	7 bayt; 191 ^b 663
644.	O’yuy olsam eshiking tufrog’ini yostanibon, Saltanat taxtig’a chiqmoq tilamon uyg’onibon.	7 bayt; 191 ^b –192 ^a 664
645.	Erur sargashta xoki tan aro majnun ko’ygul har yon, To’n etkandek quyundin jismig’a Majnuni sargardon.	9 bayt; 192 ^a 665

646.	Yorutmas quyosh tiyra shomim qorosin Ki, bu shom etar tiyra aning ziyosin.	7 bayt; 192 ^b 666
647.	Xatingkim mehr uza chekti savodin, Hamono mushkdin qilmish midodin.	7 bayt; 192 ^b 667
648.	Ishqing o'tig'a quruq jismim o'tun, Ko'ngul axgardur anga, oh-tutun.	7 bayt; 193 ^a 668
649.	Netib o'pkaymen ul chobuk ayog'in, O'pa olmon chu raxshining tuvog'in.	7 bayt; 193 ^a 669
650.	Qildi ayshim subhini ul sho'x la'bi tiyra tun, Tifl o'ynab o't o'churgondin so'ng o'lg'ondek tutun.	9 bayt; 193 ^b 670
651.	Ko'yida itlar meni gah tirmabon, gah tishlabon, Za'fdin o'lganda bir-birdin uzarlar sudrabon.	11 bayt; 193 ^b -194 ^a 671
652.	Ey ko'ngul, gar quti jon qilmoq tilar bo'lsang labin, Yo'qtur imkon solmayin bo'ynungg'a tavqi g'abg'abin.	7 bayt; 194 ^a 672
653.	Ne tong bo'lsam siyahro'z ul quyoshdin ayru, ey gardun Ki, hajrim shomi qish aqshomlaridek bo'ldi ro'zafzun.	9 bayt; 194 ^b 673
654.	Buki zulfung domig'a ko'nglum qushi urmish o'zin, Ko'rmaking erdi murodi, tikmagil bore ko'zin.	7 bayt; 194 ^b -195 ^a 674
655.	Etishti bayramu raf' etti ro'za qayg'usin, Hilol musayqali yorutti boda ko'zgunin.	7 bayt; 195 ^a 675
656.	Aqlu, jonu, ko'nglum ul oy furqati ozoridin, Bori bir-birdin malul o'lmishlaru men boridin.	7 bayt; 195 ^b 676
657.	Gar meni yod etmas ul oy zulm ila bedodidin, Shukrkim, g'ofil emasmen bir dam aning yodidin.	7 bayt; 195 ^b -196 ^a 677
658.	Menki har soat chekarmen yuz jaf o'g'yordin, Ne ajab gar yuz balo har lahza ko'rsam yordin.	7 bayt; 196 ^a 678
659.	Ko'zgu har dam sudur ul ruxsori olamso'zdin, Muz aningdekkim erir mehri jahonafro'zdin.	7 bayt; 196 ^b 679
660.	Yorab, ulkim vasl shomi kom olur zebosidin, Tiyra qilma ayshi ko'zgunin subh anfosidin.	7 bayt; 196 ^b 680
661.	Mehr emas mash'al yorutqon qal'ai aflokkin Kim, falakka soldi o't ruxsori otashnokkin.	7 bayt; 197 ^a 681
662.	Ey musulmonlar, fig'on ul kofiri xudkomkin Kim, chiqardi ko'kka afg'on lashkari islomkin.	7 bayt; 197 ^{ab} 682
663.	O'tda qil yanglig' tanimni hajr o'tining tobidin, Bilmasang fahm et gul uzra sunbulung qullobidin.	7 bayt; 197 ^b 683

664.	Oy botti munfail bo‘lubon ul jamoldin, Shoyadki, chiqmag‘ay yana bu infioldin.	7 bayt; 197 ^b –198 ^a 684
665.	Ko‘z bog‘ida gul ekmisham ul yuz xayolidin, Vojibdurur ko‘zumga su bermak jamolidin.	7 bayt; 198 ^a 685
666.	Ey musulmonlar, fig‘on ishq baloangezdin, Ohu vovaylo balolig‘ furqati xunrezdin.	7 bayt; 198 ^{ab} 686
667.	Bir parivashkim ko‘ngul devonadur savdosidin, Gar erur bandangki ozod o‘lmang istig‘nosidin.	7 bayt; 198 ^b 687
668.	Vasl etti yor va‘da labi jonfizosidin, Go‘yo bu so‘zni aytti jonim arosidin.	7 bayt; 198 ^b –199 ^a 688
669.	Dameki ishq o‘tida qolmag‘ay asar mendin, Namuna bo‘lg‘usi uchmakda har sharar mendin.	7 bayt; 199 ^a 689
670.	Men kimmenu qilmoq havas ul sho‘x libosin, It bilsa kerak mug‘tanam idbor palosin.	7 bayt; 199 ^{ab} 690
671.	Yana ne chehrag‘a o‘t soldi mayki, hayronmen, Yana ne turrani yel ochtikim, parishonmen.	7 bayt; 199 ^b 691
672.	Har kishi bayram sabohi shodu men g‘amnokmen, Iydgoch ichra ayog‘ ostidag‘i xoshokmen.	7 bayt; 199 ^b –200 ^a 692
673.	Tirik qolsam gar o‘zni bazmi vasling ichra solg‘aymen, Firoqing shiddatin de olmasam xud nig‘lay olg‘aymen.	9 bayt; 200 ^a 693
674.	Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kech- kamen, Xonumondin kim desun, ikki jahondin kechkamen.	7 bayt; 200 ^b 694
675.	Qadni ul xurshid ayog‘inda agar dol etkamen, Jilvasig‘a zulf yanglig‘ o‘zni pomol etkamen.	7 bayt; 200 ^b –201 ^a 695
676.	Yor ila ag‘yor ozoridin andoq zormen Kim, tani zorim kebi boshtin ayoq ozormen.	7 bayt; 201 ^a 696
677.	Har tarafkim borur ag‘yor ila jonon talashurmen, Chun ajal qasd qilur o‘lmakima, jon talashurmen.	7 bayt; 201 ^{ab} 697
678.	Bilgasen, chekmas kishi dardu balo andoqki men, Gar birovga muftalo bo‘lsang, sanga andoqki men.	7 bayt; 201 ^b 698
679.	Tufrog‘imdin ahli ishq etsa tanure shodmen Kim, ichimda ishq o‘ti yonmoq bila mu‘todmen.	7 bayt; 201 ^b –202 ^a 699
680.	Orazing naqshin ko‘ngul lavhida tasvir etkamen, Bo‘lmasa taqdir ani ko‘rmak, ne tadbir etkamen.	7 bayt; 202 ^a 700

681.	Yorab, anglabmu ekin ul oykim, aning zorimen, Kechalar savdosidin andoqki zulfi torimen.	7 bayt; 202 ^{ab} 701
682.	Tushta la'lin ko'rdum uyg'onmay debon qayg'udamen, Urma dam, ey subhkim, bir dam chuchuk uyqu- damen.	7 bayt; 202 ^b 702
683.	Bazm ichinda andoq ul mahvash xayoli birlamen Kim, xayol andoq qilurmenkim, visoli birlamen.	7 bayt; 202 ^b -203 ^a 703
684.	Yuz jafo, tong yo'q, gar ul nomehribondin ko'rgamen, Kim vafo ko'rmish biravdinkim, men andin ko'rgamen.	9 bayt; 203 ^a 704
685.	Ul oy firoq ila qismim g'am etsa naylagamen, Visoli g'ayri ichin xurram etsa naylagamen.	7 bayt; 203 ^b 705
686.	Bir yuzi o'tluq sharori ishqidin mahrumen, Do'stlar, o'rtansam, etmang aybkim, ma'zurmen.	7 bayt; 203 ^b -204 ^a 706
687.	Telba ko'nglum javridin andoq parishonholmen Kim, aning bedodining sharhin demakdin lolmen.	7 bayt; 204 ^a 707
688.	Bo'ldi ayog'ing qora ziynatu peroyadin, Uylaki bo'lg'ay qora sham' tubi soyadin.	7 bayt; 204 ^{ab} 708
689.	Orazingni tush ko'rub to subh tindim uyqudin, Chun ko'z ochtim uyqudin kun chiqmish erdi o'trudin.	7 bayt; 204 ^b 709
690.	Ko'rguzur ag'yor yuz tuhmat nihoni naylayin, Yorkim so'rmay inonur, bu baloni naylayin?	7 bayt; 204 ^b -205 ^a 710
691.	Ko'ngullardin ko'rub zulfung aro o'tluq asar har yon, Tunu anjum dema bilgil tutun ichra sharar har yon.	9 bayt; 205 ^a 711
692.	Hajr shomidin qorong'uroq tun o'lg'aymu ekin, Yo rab, ul tundin xalos o'lg'an kun o'lg'aymu ekin?!	7 bayt; 205 ^{ab} 712
693.	Zarvaraqtin yo kebi qoshingda zevarmu ekin? Yo magar mushkin hilol ustida axtarmu ekin?	7 bayt; 206 ^a 714
694.	Bu kecha hajr kuni shomi qiyrgunimu erkin, Yo'q ersa sa'b g'amim do'zaxi tutunimu erkin?	7 bayt; 206 ^a 715
695.	Ne bahor o'lg'ayki bir gul hajridin badholmen, Uylakim bulbul xazon faslida gungu lolmen.	7 bayt; 206 ^a 716
696.	Ming o'tum bor, aylay olmasmen ayon mingdin birin, Dahr kuygay, zohir etsam nogahon mingdin birin.	7 bayt; 206 ^b -207 ^a 717
697.	Demangiz kelmish alam sihat ketib, yor ilgidin Kim, manga ham yuz alamdur ul jafakor ilgidin.	7 bayt; 207 ^a 718

698.	Soqiyo, ochting chu may tutmaqqa jomi Jam yuzin, Yuz g‘amim daf’ ayladingkim, ko‘rmagaysen g‘am yuzin.	9 bayt; 207 ^{ab} 719
699.	Moviya behol ko‘nglak, vah, ne farruxfol ekin Kim, taningg‘a surtulur bu vajhdin behol ekin.	7 bayt; 207 ^b 720
700.	Labing mayi havasidin mudom yig‘larmen, Piyoladek bo‘lubon talxkom yig‘larmen.	7 bayt; 207 ^b –208 ^a 721
701.	Garchi ul mahvash jafo aylar, taammul qilmayin, Chunkn oshiqmen, vedur choram tahammul qilmanin.	7 bayt; 208 ^a 722
702.	Chok-chok etting ko‘ngul komini hosil qilmayin, Keskulotting notavon saydingni bismil qilmayin.	7 bayt; 208 ^{ab} 723
703.	Gar desa ko‘z birla ruxsorin tamosho qilmayin, Vaslini naylab ko‘ngul birla tamanno qilmayin,	9 bayt; 208 ^b –209 ^a 724
704.	O‘rtama ko‘nglumni komin hosil etmastin burun, Qushni kim biryon etibtur, bismil etmastin burun.	7 bayt; 209 ^a 725
705.	Oshiq o‘ldum, necha javr ahli zamondin tortayin. Ulkim oshubi zamondur bori andin tortayin.	7 bayt; 209 ^{ab} 726
706.	Yorumas sham‘i jamoling, rishtai jon o‘rtabon, Furqating dardi kam o‘lmas, dog‘i hijron o‘rtabon.	7 bayt; 209 ^b –210 ^a 727
707.	Chehra yopting xasta jonimni anga zor aylabon, Zulf yig‘ding telba ko‘nglumni giriftor aylabon.	7 bayt; 210 ^a 728
708.	Ohu vovayloki, olam ahlining badholimen, Har nafas bir dardu mehnat xaylining pomolimen.	7 bayt; 210 ^{ab} 729
709.	El g‘amimdin kuymasun deb, nolai zor aylamon, Dardi holimning mingidin birni izhor aylamon.	7 bayt; 210 ^b 730
710.	Shomi hijron zulmatida obi hayvon istaman, Ne uchunkim sensiz, ey umrum xushi, jon istaman.	7 bayt; 210 ^b –211 ^a 731
711.	Jong‘a har dam ishqidin yuz ming balo kam istamon, O‘zgaga ming yil o‘tub, yuzdin birin ham istamon.	7 bayt; 211 ^a 732
712.	Qatra terlardin yuzinda dur nishonimu deyin, Yo takallum vaqti la‘li durfishoninmu deyin?	7 bayt; 211 ^{ab} 733
713.	Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qorosinmu deyin, Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin?	7 bayt; 211 ^b 734
714.	O‘lturur ko‘yida ishq ahlin alolosi uchun, Shoh qatl etkan kebi itlarni g‘avg‘osi uchun.	7 bayt; 212 ^a 735
715.	G‘am tuni la‘ling surudi hajr der men zor uchun, Chun ajal yetti — Masiho zahr ezar bemor uchun.	7 bayt; 212 ^a 736

716..	Ko'z ohim o'ti sori shoyadki solmag'aysen, Solsang, tamug' o'tini og'zingg'a olmag'aysen.	7 bayt; 212 ^b 737
717.	Maskanim hijronda bo'lsa erdi Marvi shohjon, Bergay erdi hajrdin o'lsam, tanimg'a shoh jon.	7 bayt; 212 ^b -213 ^a 738
718.	Necha ashkimdin manga, ey ishq bedod etkasen, Ohdin jismim xasin har lahza barbod etkasen.	7 bayt; 213 ^a 739
719.	Kimsa mendek ishq aro besabru orom o'lmasun, Yor anga bir sen kebi badmehru xudkom o'lmasun?	7 bayt; 213 ^{ab} 740
720.	Yo'q damekim, ul quyosh yodida faryod aylamon, Aylamon faryodkim, gardunni barbod aylamon.	7 bayt; 213 ^b 741
721.	Er holidin manga, vahkim, xabar yo'qtur bu kun, Bu jihatdin aqlu hushumdin asar yo'qtur bu kun.	7 bayt; 213 ^b -214 ^a 742
722.	Lablaring sharbatini chashmai hayvonmu deyin? Demasam chashmai hayvon, ne deyin, jonmu deyin.	7 bayt; 214 ^a 743
723.	Ko'z bila qoshing aro ul xoli mushki nobdin, Nuqta kofir uzra tushmish yo quyi mehrobdin.	7 bayt; 214 ^{ab} 744
724.	Ko'zlarim ko'r et, ko'ngulga dog'i hijrondin burun Kim, bu ikki kuydurubturlar meni andin burun.	9 bayt; 214 ^b 745
725.	Necha ul chehrani ko'z lavhida tasvir etayin, Ani ko'rmakka bu suvrat bila tadbir etayin.	7 bayt; 214 ^b -215 ^a 746
726.	Necha g'amim o'tin ahli zamong'a yetkurayin, Sharoru dudidin aning osmong'a yetkurayin.	7 bayt; 215 ^a 747
727.	Yuzung subhida xoling nuqtaedur, subh aro bo'lg'an, Yo'q ersa ko'rmaduk tong yulduzin hargiz qoro bo'lg'an.	9 bayt; 215 ^{ab} 748
728.	Ishq aro men kebi yo'q besarusomon bo'lg'an, Xonumon buzg'an aloxonu alomon bo'lg'an.	9 bayt; 215 ^b -216 ^a 749
729.	Ishq ichra qani men kebi zeru zabar o'lg'an Har kimki yo'q andin batari, andin batari o'lg'an.	7 bayt; 216 ^a 750
730.	Charxdin jonimg'adur yuz tig'i qotil har zamon, Davrdin jomimda ming zahri halohil har zamon.	11 bayt; 216 ^{ab} 751
731.	Falakdin gar manga har lahza yuz qayg'u kelur o'tru, Agar har qayg'udin so'ng bir sevinmak bor, emas qayg'u.	9 bayt; 216 ^b -217 ^a 752
732.	Qayon qilsa havo ul turfa qush uyqum olur qayg'u, Vagar kulbamda bir tun qo'nsa xud ko'zdin uchar uyqu.	9 bayt; 217 ^a 753

733.	Ne ajab, gar qilmasam gul rangi bo’yin orzu Kim, erur andin dimog’im ichra o’t, ko’zumda — su.	7 bayt; 217 ^b 754
734.	O’t yolindek sen qachon chopsang samandi barqrav, Bir alam ul o’tqa boshing ustida gulgun yalav.	7 bayt; 17b–218 ^a 755
735.	Ohu ashkimdin shikoyat aylamish ul tund xo’, Ne dey olg’aymenki bir og’zida o’tdur, birda su.	7 bayt; 218 ^a 756
736.	Yuzunga oshufta qoshlar bo’lmasa oshiq nag’u, Bo’ldilar har qaysi bir devonai jo’lida mo’.	7 bayt; 218 ^{ab} 757
737.	Yordin ayru may ichmak qindurur balkim og’u, Xoh og’izda talx su, xohi burunda sho’r su.	7 bayt; 218 ^b 758
738.	Ko’nglumu bag’rimni g’amzang tig’i aylar kov-kov, Yo’q ajab gar qon oqar ikki ko’zumdin nov-nov.	7 bayt; 18b–219 ^a 759
739.	Ro’zada lab tashnalig’din qildi za’f ul mohro’, Jon berurmen la’lig’a to bo’lg’usi jonimda su.	7 bayt; 219 ^a 760
740.	Ey sabo, ovvora ko’nglum istayu har yon boru, Vodi-yu tog’u biyobonlarni bir–bir axtaru.	7 bayt; 219 ^{ab} 761
741.	Sipehri oynagun gar damimdin o’ldi qorong’u, Asar yo’q emdi qo’yulsa og’zima ko’zgu.	7 bayt; 219 ^b 762
742.	Tariqi ishq aro gar o’zni fard qilsa birov, Harif emas yeru ko’k, necha gar erurlar ikov.	7 bayt; 19 ^b –220 ^a 763
743.	Ne yuzungda muayyan kamoli sun’i iloh, Ne yuzdurur bu, ne ko’z (lo iloha illalloh)	6 bayt; 220 ^a 764
744.	Mehrdin dermenki, bo’lsam doyim ul oyim bila, Naylayinkim, charx evrulmas mening royim bila.	7 bayt; 220 ^b 766
745.	Hayhotkim, birav g’amidin zormen yana, Faryodkim, balog’a giriftormen yana.	7 bayt; 221 ^a 768
746.	Ko’nglum og’zingning xayolidinki to’lmish g’am bila, Naqd uza mumedururkim, naqsh erur xotam bila.	7 bayt; 221 ^{ab} 769
747.	Meni gadoy qachon yettim ersa shohimg’a, Yuzumni yerga qo’yub shukr dey ilohimg’a.	7 bayt; 221 ^b 770
748.	Otashin gul garchi ziyatdur jahon bo’stonig’a, Barq erur har yel uchurg’an bargi bulbul jonig’a.	9 bayt; 221 ^b 771
749.	Ko’ngulkim, vaslin istar har taraf dog’i sitam birla, Erur Yusuf xaridori necha eski diram birla.	5 bayt; 222 ^a 772
750.	G’amidin garchi jon yo’q erdi tanda, Tirildim la’lidan o’ldum deganda	7 bayt; 222 ^{ab} 773
751.	Tushti o’t ko’nglum uyiga ohi dardolud ila, Ko’zda kirpik dema bu ravzan, qorarmish dud ila.	7 bayt; 222 ^b 774

752.	Yana ne o't edikim tushti xonumonimg'a, Yana ne sho'la edikim, tutashti jonimg'a.	7 bayt; 22 ^b -223 ^a 775
753.	Pardag'a kirgan kebi xurshidi raxshon har kecha, Azmi xilvat aylar ul sham'i shabiston har kecha.	7 bayt; 223 ^a 776
754.	Jon olsa naylay ul buti paymongusil bila, Chun bermisham ko'ngulni anga ishq dil bila.	7 bayt; 223 ^b 777
755.	Orazi yonig'a gul sanchar jamol izhorig'a, Anglatur husnin ani yondoshturub ruxsorig'a.	7 bayt; 223 ^b 778
756.	Nasihah ahli manga derki, mayni tark et, vah, Ilig olib kelur, og'iz ichar, manga ne gunah?	7 bayt; 224 ^a 779
757.	Qil uchi ko'rmay og'zingdin nishona, Anga oshiq bo'lubmen g'oyibona.	7 bayt; 224 ^{ab} 780
758.	To ko'rubon yuzin quyosh qolg'ali ishtiyoqig'a Goh boshig'a evrulur, goh tushar ayoqig'a.	7 bayt; 224 ^b 781
759.	Ko'radurmenki borur yoru qolurmen meni gumrah, Bora olman, tura olman, ne qatiq holat erur, vah.	7 bayt; 24 ^b -225 ^a 782
760.	Vahki, bir badmehr o'qi jonimg'a parrondur yana, Tiira ko'nglum kulbasining sham'i paykondur yana.	7 bayt; 225 ^a 783
761.	Ko'ngluma anduh yelidin g'uboredur yana, Go'yyi ani qo'zg'ag'an chobuksuvoredur yana.	7 bayt; 225 ^{ab} 784
762.	Zihe har lahni bulbul savtining zotingg'a isbote, Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnungra mir'ote.	7 bayt; 225 ^b 785
763.	Ohima yor og'zi bir dam kulmagin kam qilmadi, Chun sabodin g'uncha ochildi yana yopilmadi.	7 bayt; 25 ^b -226 ^a 786
764.	May xalos etti riyoyiy porsolig'din meni, Shukrkim, qutqardi zuhdu xudnamolig'din meni.	9 bayt; 226 ^a 787
765.	Davlat tongi yuziyu sochi tong qorong'usi, Masti sabuh ko'zlarin eltib tong uyqusi.	7 bayt; 226 ^{ab} 788
766.	Zohir aylar ashk ila ohimni hajring og'usi, Go'yyi mundoq esnatur oxir nafasning uyqusi.	7 bayt; 226 ^b 789
767.	Sensizin bazm ichra qat-qat qon, ko'ngul betob edi, Dam-badam jomi labolab chekkanim xunob edi.	7 bayt; 227 ^a 790
768.	Tilarmen mustar etsa ofati ozurda jonimni, Sovursa ofiyat birla tuzilgan xonumonimni.	7 bayt; 227 ^{ab} 791
769.	Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray, Shart bukim, har necha tutsang labolab sipqaray.	7 bayt; 227 ^b 792
770.	Bo'lg'ay erdi yuz tuman, ming ranju mehnat koshki, Bo'lmag'ay erdi balovu dardi furqat koshki.	7 bayt; 27 ^b -228 ^a 793

771.	Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari, Xossa bayram avvali bo‘lg‘ay dag‘i gul oxiri	7 bayt; 228 ^a 794
772.	Ikki hamdamkim, erur may bazm aro hamdamlari, Topmasun bizdin malolat xotiri hurramlari.	6 bayt; 228 ^{ab} 795
773.	Dedimki, ko‘zga chekay gardi rahnavardingni, Fig‘onki, topmadi ko‘z to‘tiyog‘a gardingni.	7 bayt; 228 ^b 796
774.	Qo‘zg‘adi ohim so‘ngak birla tani g‘amnokni, Yel sovurdi bir ovuch tufrog‘ ila xoshokni.	7 bayt; 28 ^b –229 ^a 797
775.	Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida jomi g‘am tutay O‘z qatiq holimg‘a o‘lmastin burun motam tutay.	7 bayt; 229 ^a 798
776.	Orazing zar huqqalardin, ey malohat mash‘ali, Mus‘hafedur lojuvardu oltun aning jadvali.	7 bayt; 229 ^{ab} 799
777.	Boda bu maqbulluq zotimda mavjud ayladi Kim, meni zuhdu riyo ahlig‘a mardud ayladi.	7 bayt; 229 ^b 800
778.	Ko‘nglum ohidin tabassum la‘lingga fan bo‘lmadi Uylakim, la‘l axgari yel birla ravshan bo‘lmadi.	7 bayt; 29 ^b –230 ^a 801
779.	Yuz urma har taraf, ey sho‘xu zor qilma meni, Qaror tut nafase, beqaror qilma meni.	7 bayt; 230 ^a 802
780.	Ey dudog‘ing sharbatida obi hayvon lazzati, Lazzate bo‘lg‘ay, nasibim bo‘lsa la‘ling sharbati.	7 bayt; 230 ^b 803
781.	Ul oyki, mehri ila olamni muhtaram qildi, Bu telbaga nedin oyo nazarni kam qildi.	9 bayt; 30 ^b –231 ^a 804
782.	Qildim ul oy ollida oshiqlig‘im izhorini, Men anga sirrim dedim bilman aning asrorini.	7 bayt; 231 ^a 805
783.	Har tikan bu g‘unchadek ko‘nglumda paykon bog‘ladi, Ey jigar pargolasi, sensiz ichim qon bog‘ladi.	7 bayt; 231 ^{ab} 806
784.	G‘unchadek qon bog‘lanibdur ko‘nglum, ey gul xirmani, Borg‘oli ko‘z jo‘yboridin jamoling gulshani.	7 bayt; 231 ^b 807
785.	G‘ariblig‘ yana ko‘nglumni dardnok etti, Shikastalig‘ yana ko‘ksumni chok–chok etti.	7 bayt; 31 ^b –232 ^a 808
786.	Qani visolingga bir mendek orzumande, Visol umidi bila mehnatingg‘a xursande.	7 bayt; 232 ^a 809
787.	Jonim chiqadur, hajr ila jonon kerak erdi, Ko‘nglum kuyadur, dard ila darmon kerak erdi.	7 bayt; 232 ^{ab} 810
788.	Labing takallum etib, so‘zda lol qildi meni, Ochildi zulfungu oshuftahol qildi meni.	7 bayt; 232 ^b 811

789.	Xarob aylading, ey ishq, xonumonimni, Tasavvur aylaki, o'ldum, bag'ishla jonimni.	6 bayt; 32 ^b -233 ^a 812
790.	Vah, necha ul sho'x bedodin meni shaydo ko'ray, Ishqidin yag'mo chekay, husnidin istig'no ko'ray.	9 bayt; 233 ^a 813
791.	Necha hajringda chekib un yig'lay, Har kecha yig'layu har kun yig'lay.	7 bayt; 233 ^b 814
792.	Ne diloromeki, so'rg'ay dardi holimdin gahe, Ne dil afgoreki, qayg'urg'ay malolimdin gahe.	7 bayt; 33 ^b -234 ^a 815
793.	Shohning munglug' mushavvashlar bila ne nisbati, Komronlarg'a balokashlarga qaydin ulfati.	9 bayt; 234 ^a 816
794.	Labing Masihi aning nutqi nuktapardozi Ki, ruhi qudsiy erur bu Masih e'jozi.	6 bayt; 234 ^{ab} 817
795.	Zihi yo'lungda bir aftoda odami xokiy, Havoyi ishqingda sargashta mehri aflokiy.	7 bayt; 234 ^b 818
MUSTAZODLAR		
796.	Ey husnungga zarroti jahon ichra tajalli, mazhar sanga ashyo Sen lutf bila kavnu makon ichida mavli, olam sanga mavlo.	7 band; 234 ^b -235 ^a 1
797.	Din ofati bir mug'bachayi mohiliqodur, mayxorau bebok, Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur, sarmastu yaqom chok.	7 band; 235 ^{ab} 2
798.	Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy, ne g'amzai jodu, Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy, xurshid anga ko'zgu.	7 band; 235 ^b -236 ^a 3
MUXAMMAS		
799.	Xalqai zulfingda ko'nglum bo'lg'ali g'am mahrami, Ul qaro qayg'u bilan savdo uchun ortar g'ami.	35 misra 236 ^a -237 ^a 1
TARJI'BANDLAR		
800.	Ketur, soqiy, ul mayiki, subhi alast, Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.	90 misra 237 ^a -241 ^b 1
801.	Jahon qasrig'adur suv uzra bunyod, Chu yo'q bunyod ondin bo'lmag'il shod.	58 misra; 241 ^b -244 ^a 2
802.	Ey kirpiki neshu ko'zi xunxor, Jonimni necha qilursen afgor.	42 misra; 244 ^b -246 ^b 3

803.	To xarobot aromen durdioshom, Mastlig‘ birla ishim aysh mudom.	110 misra, 246 ^b –250 ^b 4
RUBOIYLAR		
804.	Bo‘ldi mening o‘lmagimga savdo bois, Savdoga havoyi jomi sahbo bois.	2 bayt; 251 ^a 1
805.	Ko‘nglumni olibdur ul shahi sabz davoj, Kim g‘am bila olur mamolikdin boj.	2 bayt; 251 ^a 2
806.	Gul vaqti muyassar o‘lsa gulfom qadah, Andin so‘ng tutsa bir gulandon qadah.	2 bayt; 251 ^a 3
807.	Qo‘rqutma meni tomug‘din, ey zohidi yax, Jannat manga bo‘lg‘usi debon urma zanax.	2 bayt; 251 ^a 4
808.	Ruxsori uza xollari ul dilband Ochti, chu meni ko‘rdi base hojatmand.	2 bayt; 251 ^{ab} 5
809.	Yoshimg‘a bag‘ri qoni chu erdi monand, Ko‘z asradi yoshdek bo‘lub andin xursand.	2 bayt; 251 ^b 6
810.	Soqiy, badanimni notavon etdi xumor, Ko‘nglumni qadahdek to‘la qon etdi xumor.	2 bayt; 251 ^b 7
811.	Ko‘zum uchadur, magarki, yorim keladur, Es har dam o‘zar, magar nigorim keladur.	2 bayt; 251 ^b 8
812.	Ag‘yor ila juft berma fardim bor Kim, furqati za‘fida ruhi zardim bor.	2 bayt; 251 ^b 9
813.	Ahbob, dengizki, xonumondin tama‘ uz, Ne xonumon, kamnu makondin tama‘ uz.	2 bayt; 251 ^b –252 ^a 10
814.	Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz, Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.	2 bayt; 252 ^a 11
815.	Jonbaxsh labing chashmai hayvonmu emas, Hajrdin oning ichim to‘la qonmu emas.	2 bayt; 252 ^a 12
816.	G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.	2 bayt; 252 ^a 13
817.	Soqiy, meni xor–xordin ayla xalos, Gulgun yuzung och, bahordin ayla xalos.	2 bayt; 252 ^a 14
818.	Ber jomu ol, ey mug‘bacha, jonimni ivaz, Ko‘sh tutqilu, ol ikki jahonimni ivaz.	2 bayt; 252 ^{ab} 15
819.	Kim istasa saltanat, sahodur anga shart, Har va‘daki aylasa, vafodur anga shart	2 bayt; 252 ^b 16
820.	Bu davrda yo‘q sen kibi xushxon hofiz, Xuffoz aro sarxalqai davron hofiz.	2 bayt; 252 ^b 17
821.	Kim aylasa soqiyi gulandom tama‘, Ilgidin oling sog‘ari gulfom tama‘.	2 bayt; 252 ^b 18

840.	Ham qoshi birla orazi xush erur, Ham ko‘zi birla qaddi dilkash erur.	1 bayt, 254 ^a 3
------	---	-------------------------------

Адабиётлар

Catalogue of the Collection of Persian Manuscripts, Including also some Turkish and Arabic, Presented to the Metropolitan Museum of Art, New York by Alexander Smith Cochran. 1914. New-York: Columbia Univ.press.

“Алишер Навоий ва XXI аср”: ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2017, 2018, 2019. Toshkent: Tamaddun.

Алишер Навоий. 1959. *Ғаройиб ус-сиғар. Ҳазойин ул-маоний*. Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Сулаймонов. IV томлик. I том. Тошкент.

Алишер Навоий. 2015. *Оққўюнли мухлислар девони (1471)*. Нашрга тайёрловчи А.Эркинов. Токуо.

Аҳмедова, Д. 2018. “Алишер Навоий ижодининг Америка Қўшма Штатларида ўрганилиши”. *Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишининг долзарб масалалари*, 224-234. Тошкент.

Валихўжаев, Б. 1979. “Алишер Навоий мўътабар дастхат девони ҳақида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 41-43.

Джабборов, Р. 2019. “Мисрдан топилган нодир дурдона: Алишер Навоийнинг “Оққўюнли мухлислар девони” ҳақида мулоҳаза-лар”. *Гулистон* 6: 26-27.

Имомназаров, М. 2017. “Алишер Навоий лирик мероси матншунослигининг долзарб масалалари”. Алишер Навоий ва XXI аср, 6-8. Тошкент

Имомназаров, М. 2018. “Бадоеъ ул-бидоя”нинг Париж нусхаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 16-24.

Мадалиева, О. 2019. “Навоий девонларининг Машҳадий кўчирган кўлёмалари”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 79-86. Тошкент

Мақсудов, Б. 2016. “Наводир ун-нихоя”нинг янги топилган кўлёмза нусхаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 49-52. Тошкент.

Рашидова, М. 2019. “Алишер Навоий “Наводирун-нихоя” девонининг уч кўлёмза нусхаси ва уларнинг қиёсий таҳлили”. *Мозийдан садо* 1: 20-21. Тошкент.

Сулейманов, Х. 1955-1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. В трех томах.* Диссертация доктора филологических наук. I-II т. Ташкент-Москва.

Сулейманов, Х. 1961. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои.* Автореферат – диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Ташкент, Таблица № 1.

Ҳакимов, М. 1983. *Навоий асарлари кўлёмзаларининг тавсифи*. Тошкент: Фан.

Эркинов, А. 2012. “Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 10-18. Тошкент.

Yusupova, D. 2017. “Navodir un-nihoya” faqat g‘azallardan iborat devonmi?”. *Alisher Navoiy va XXI asr: ilmiy-nazariy anjuman*, 54-60. Toshkent.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida

muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili

(URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniyl adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Qaydlar uchun

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 30. 06. 2021-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62